

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**ETIKA VA ESTETIKANING
NAZARIY ASOSLARI**

2023

**Sharipov A.Z. falsafa fanlari nomzodi,
dotsent**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“ETIKA VA ESTETIKANING NAZARIY ASOSLARI”

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Falsafa

Buxoro-2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **A.Z.Sharipov** falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchi: **B.B.Namozov** falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2022 yil “30” dekabdagi 9-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MATERIALLAR	30
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	87
V. GLOSSARIY	93
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	119

I. IShChI DASTUR

Kirish

“Etika va estetikaning nazariy asoslari” moduli hozirgi kunda mantiq va tafakkurni shakllantiruvchi fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish, logika ilmidagi so‘nggi yutuqlar, muammolarni o‘rganish va ta‘lim berish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha, hamda ularning kelajakdagi o‘rni masalalarini qamraydi.

Modulning maqsadi va vazifalari

« **Etika va estetikaning nazariy asoslari** » modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarining bu borada mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda to‘plangan mantiq ilmi, uni o‘qitishning zamonaviy usullarini o‘rganish, amalda qo‘llash, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

«Etika va estetikaning nazariy asoslari» modulning vazifalari:

- falsafa yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- mutaxassislarni kasbiy etiket va kasb estetikasini oshirishning zamonaviy usullarini tadbiq qilish;
- Etikaning dolzarb masalalari va estetik didning shakllanishiga oid tamoyillarning ahamiyatini ochib berish;
- falsafa yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetentligiga qo‘yiladigan talablar

« **Etika va estetikaning nazariy asoslari** » modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- etika va estetikaning nazariy asoslarini;
- etika va estetika fanlarining umumnazariy masalalari, global muammolari, ta‘lim, tarbiya va ma‘naviy taraqqiyotdagi o‘rnini;

- etika va estetika fanining asosiy tushunchalari, me'yorlari va tamoyillarini;
- pedagogik faoliyati sohasida etika va estetikaning tamoyillari va qonuniyatlarini;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi in'ikosi, voqelikka axloqiy va estetik munosabatda bo'lishning zamonaviy ko'rinishlarini **ko'nikmalariga ega bo'lishi** lozim.

Tinglovchi:

- axloq va estetik bilimlarni o'rganish orqali keng mushohada yuritish;
- etika va estetikaning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- globallashtirish jrayonidagi axloqiy estetik muammolarini aniqlash va tahlil qilish;
- etikaning ilmiy, nazariy, tarixiy va progmatik ahamiyatini hayotiy voqelik va ilmiy asosda tushuntirib berish;
- estetikaga oid manbalardan zarur va muhim bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olish, ularni izchil tizimga keltirib, talqin qilish **malakalariga ega bo'lishi** lozim;

Tinglovchi:

- etika va estetika fanida innovatsion o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- etika va estetika fanining insoning jamiyatda tutgan o'rni, yashashdan maqsad kabi masalalarni tahlil qilish va bugungi kun bilan taqqoslash;
- etika va estetikaning dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish **kompetensiyalariga ega bo'lishi** lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

«Etika va estetikaning nazariy asoslari» moduli o'quv rejadagi boshqa modullar va mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning bu soha bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar falsafa va falsafiy fanlarini o'qitishda zamonaviy usullar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuv asoslari va bu boradagi ilg'or tajribalarni o'rganadilar,

ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy layoqatga ega bo'lish, ilmiy-tadqiqotda innovatsion faoliyat va ishlab chiqarish faoliyati olib borish kabi kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Jami	jumladan	
				Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot
1	“Etika” va “Estetika” fanini o'qitishning zamonaviy usullari va uslublari.	4	4	2	2
2	XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari.	2	2	2	2
3	Axloq psixologiyasi.	4	4		2
4	Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.	4	4		2
5	Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.	2	2	2	2
6	Estetik anglash.	4	4	2	2
	Jami	20	20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1–Mavzu: “Etika” va “Estetika” fanini o'qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

Reja:

1. Falsafiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Soxaga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or tajribalar.
3. “Etika” va “Estetika” fanini o'qitishning usullari va uslublari.

4. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari.

2–Mavzu: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari.

Reja:

1. XXI asrning global muammolari: falsafiy tahlil.
2. Hozirgi davr axloqiy muammolari: ekologik axloq va etosfera.
3. Estetikaning zamonaviy muammolari: nafosat, did va san’at.
4. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo‘lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta’siri.

3–Mavzu: Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.

Reja:

1. Etiket tushunchasi, mazmuni va mohiyati.
2. Etiket – amaliy axloq sifatida.
3. Etiketni shakllantirishning usul va vositalari.
4. Kasbiy etiketni shakllantirish – taraqqiyotni ta’minlash omili sifatida.

4-Mavzu: Estetik anglash.

Reja:

1. Estetik bilish, anglash va ishlab chiqarish jarayoni.
2. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.
3. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari.
4. Yosh avlodni estetik tafakkurini shakllantirishning dolzarb muammolari

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1–Mavzu: “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

Reja:

1. Falsafiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Soxaga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or tajribalar.
3. "Etika" va "Estetika" fanini o'qitishning usullari va uslublari.
4. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo'llari.

2–Mavzu: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari.

Reja:

1. XXI asrning global muammolari: falsafiy tahlil.
2. Hozirgi davr axloqiy muammolari: ekologik axloq va etosfera.
3. Estetikaning zamonaviy muammolari: nafosat, did va san'at.
4. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo'lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta'siri.

3-Mavzu: Axloq psixologiyasi.

Reja:

1. Ruhiy tahlil yo'nalishi va g'ayrizo'ravonlik.
2. Gender muammolari.
3. Ayol va erkaklarning xulq-atvori va motivatsiyasi.
4. Axloq psixologiyasining barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o'rni.

4-Mavzu: Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.

Reja:

1. Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.
2. Kasbiy odob va uning tamoyillari.
3. Axloqiy madaniyat.
4. Kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati.

5–Mavzu: Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.

Reja:

1. Etiket tushunchasi, mazmuni va mohiyati.
2. Etiket – amaliy axloq sifatida.
3. Etiketni shakllantirishning usul va vositalari.
4. Kasbiy etiketni shakllantirish – taraqqiyotni ta'minlash omili sifatida.

6-Mavzu: Estetik anglash.

Reja:

1. Estetik bilish, anglash va ishlab chiqarish jarayoni.
2. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.
3. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko'rinishlari.
4. Yosh avlodni estetik tafakkurini shakllantirishning dolzarb muammolari

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

O'zbekiston Respublikasida yuqori malakali oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishda, yangi pedagogik texnologiyalarga alohida o'rin ajratilgan. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'kidlanganidek, "Talabalarni o'qitishni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jadallashtirish zarur". Pedagogik texnologiya - bu davr talabidir. O'qituvchilik faoliyati ishlab-chiqarish faoliyatining bir turi bo'lgani sababli, pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi ham shu bilan bog'liqdir. Shuning uchun, unga ham, ishlab-chikarish texnologiyasidek

quyidagi talablar qo'yiladi: loyihalash, boshqarilish, natijalarga kafolatli erishilish, tuzatuvlar kiritilishi, tejamkorlik.

Pedagogik maqsadlarning hozirgi kunda eng keng tarqalgan taksonomiyasi, amerikalik pedagog olim B.Blunning tizimi hisoblanadi. O'quv maqsadlarining asosiy toifalari, B.Blum bo'yicha, quyidagilar hisoblanadi: bilish; tushunish; qo'llash; analiz; sintez; baholash

O'quv fanining maqsadlarini aniqlashtirish, bu taksonomiya bo'yicha quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Fanning o'quv maqsadlarini belgilash.

2. Har qaysi mavzu, bo'lim, modulning maqsadlarini belgilash.

O'quv maqsadlari tizimini tuzish va darajalashni jadval ko'rinishida tasvir etish maqsadga muvofiq bo'ladi (2.1-jadval).

Birinchi bosqichda har bir mavzu (bo'lim) bo'yicha tayanch iboralarni alohida ko'rsatish lozim.

Ikkinchi bosqichda, har bir tayanch iborani, o'rganilish chuqurligini o'rnatish zarur bo'ladi. Ya'ni, talaba qaysidir tayanch iborani bilish darajasida (o'quv materialini eslab qolish yetarli bo'ladi), boshqa tayanch iborani qo'llash darajasida (aniq sharoitlar uchun o'quv materialidan foydalanish), ayrim tayanch iboralarni baholash darajasida (o'quv materialining u yoki bu qiymatini aniq maqsadiga ko'ra baholashi va buning natijasi ijodiy xulosa chiqarishi) va h.k. o'zlashtirishi zarur bo'ladi.

Uchinchi bosqichda har bir o'quv maqsadiga erishish, mezonni o'rnatish kerak bo'ladi. Ya'ni, o'quv maqsadi shunday ifodalanishi zarurki, unga yetish yoki yetmaganligini adashmasdan aniqlash mumkin bo'lsin.

O'quv maqsadlarining bunday aniq turlanishi, o'qitish jarayonini optimal rejalash va o'qitishdan ko'zlangan natijalarga erishish imkoniyatini beradi. O'quv maqsadlariga erishilgani yoki o'qitish natijalari haqida faqat tashqi belgilar javoblar, masalalarni yechish va h.k. bo'yicha xulosa chiqarish mumkin.

Ifodalovchi belgilari to'la va ishonchli yoritilgan maqsad, identifikatsiyalanadigan maqsad deyiladi. Shuning uchun, o'qitish vazifasini identifikatsiya qilish uchun, uning

tashqi belgilarini to'la ifodalash zarur.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil qilish tartiblari

O'quv jarayonining asosiy qismi dars mashg'ulotlari bo'lib, uni qay darajada mohirona tashkil etilishi pirovard natijalarda, ya'ni talabalar tomonidan o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirilishida o'z ifodasini topadi.

Dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rish

An'anaviy darslarga tayyorgarlik ko'rishda, odatda, tegishli adabiyotlarni o'rganib, darsning rejasi va tegishli ma'ruza matni tayyorlanar edi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida darsga tayyorgarlik ko'rish an'anaviy tayyorgarlikdan katta farq qiladi. Ya'ni, bunda, o'qituvchi tayyorgarlik davomida tegishli mavzuning maqsadini, uni o'tkazish usuli va vositalarini tanlashi yoki aniqlashi, namoyish etilishi zarur bo'lgan tasviriy materiallarni taxt qilib qo'yishi, yetarli darajada tarqatma materiallarni tayyorlashi, o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini aniqlovchi baholash mezonlari ishlab chiqishi zarur. Ushbu tayyorgarlik davomida dars borishini ifodalovchi loyiha yoki boshqacha aytganda darsning ssenariysini tayyorlashi lozim. Unda darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanish nazarda tutiladi.

Dars jarayonini loyihalash

Dars jarayonini loyihalash - dars davomida o'qituvchi tomonidan talabalarga tegishli bilim, ko'nikma, axborot yoki ma'lumotlarni yetkazishni tartiblashtirishdir. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Mavzu va tayanch iboralarning o'quv maqsadlari shakllantiriladi (B.Blum taksonomiyasi asosida).
2. Mavzuni yoritish uslubi tanlanadi.
3. Talabalarni faollashtiruvchi savollar, topshiriqlar, testlar, masala yoki mashqlar tayyorlanadi.
4. Baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bunda o'quv maqsadlarga erishilganligini aniqlovchi belgilar, topshiriqlarning javoblariga mosligini belgilovchi mezonlar keltirilishi maqsadga muvofiq.

5. Dars jarayoni loyihasining har bir qismida o'qituvchi va talabaning aniq vazifasi keltiriladi.

Fanning bir semestr davomida o'qitiladigan qismi uchun yuqorida zikr etilgan bandlar to'la yoritilgan uslubiy ishlanma yangi pedagogik texnologiyani tegishli fanga qo'llashga doir uslubiy qo'llanma hisoblanadi. Bunda tegishli fandan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun alohida-alohida uslubiy qo'llanma yaratish maqsadga muvofiqdir. Quyida texnik, iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha dars loyihalari namunalari keltirildi.

Etika va estetika fanlarini o'qitish jarayonida ba'zi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

“Etikaning asosiy tushunchalari. Axloqiy tamoyillar va me'yorlari” mavzusiga “Pinbord” metodining qo'llanilishi.

Dars mavzusi: (seminar) Etikaning asosiy tushunchalari, axloqiy tamoyillar va me'yorlari

Darsning ta'limiy maqsadi: Axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o'rni, axloq tuzilmasi tushunchasi: axloqiy ong va unda urf odat va an'analarning o'rni; axloqiy hissiyotning o'ziga xos hissiy kechinma ekanligi; axloqiy munosabatlar va ularning axloqiy faoliyatga ta'siri, Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov tushunchalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning ijtimoiy zaruriyatligi hamda etikaning asosiy mezoniy tushunchalari, tamoyillari va me'yorlari haqida ma'lumotlar berish .

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning axloqshunoslik asosiy mezoniy tushunchalarini inson hayotidagi o'rnini xis qilish hamda qo'llay bilish ko'nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, axloq tuzilmasi tushunchasi: axloqiy ong va unda urf odat va an'analarning o'rni; axloqiy hissiyotning o'ziga hos hissiy kechinma ekanligi; axloqiy munosabatlar va ularning axloqiy faoliyatga ta'sirini tushuntirishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan metod “Pinbord”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni ma'ruza mashg'ulotining mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.
3. Ma'ruza yakunida mavzuga oid tushunchalar bilan ishlash

Darsni o'qituvchi kirish so'zi bilan ochiladi. Ma'ruza mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda axloqning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o'rnini, axloq tuzilmasi tushunchasi: axloqiy ong va unda urf odat va an'analarning o'rnini; axloqiy hissiyotning o'ziga hos hissiy kechinma ekanligi; axloqiy munosabatlar va ularning axloqiy faoliyatga ta'siri, ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov tushunchalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning ijtimoiy zaruriyati haqida ma'lumotlar beradi.

“Pinbord” metodi mazmuni.

Pinbord metodi (ingliz tilidagi pin– yopishtirmoq, board – doska) – ya'ni olingan bilimlarni doskaga mustahkamlash, yopishtirmoq degan ma'noni anglatadi. Pinbord metodi-vazifalarni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi. Metodni quyidagicha qo'llash tavsiya etiladi: talablarni rangi kartochkalar yordamida kichik guruhlariga ajratish va vazifalar berish, iloji boricha har bir guruhga alohida vazifalar beriladi. Guruhlar vazifalarni bajarishlari uchun qog'oz to'plami va yozishlari uchun markerlar tarqatiladi. Berilgan vazifani kichik guruh a'zolari kelishilgan holda qog'ozlarga yozib boradi. Guruhdan bitta ishtirokchi yozadi qolgan ishtirokchilar vazifa javoblarini aytib turadi. Vazifa bajarib bo'lgandan keyin magnitlar yordamida doskaga mahkamlanadi va taqdimot qilinadi. Barcha kichik guruhlar taqdimotidan keyin guruhlar bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama qilinadi hamda noto'g'ri javoblar bo'lsa olib tashlanadi. Har bir guruh taqdimotidan so'ng, oldindan ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida baholaniladi.

“Pinbord” metodining ishlanmasi

Kichik guruhlarga beriladigan vazifalar :

1-guruh: Etikaning asosiy kategoriyalari (qizil rangli kartochkalar)

2-guruh: Etikaning tamoyillari (yashil rangli kartochkalar)

3-guruh: Etikaning me'yorlari (sariq rangli kartochkalar)

Etikaning asosiy kategoriyalari:

- Muhabbat va nafrat
- Ezgulik va yovuzlik
- Yaxshilik va yomonlik
- Kamtarlik
- Baxt
- Hayotning ma'nosi
- Vijdon
- Nomus
- Adolat

Etikaning me'yorlari:

- Millatparvarlik
- Vatanparvarlik
- Erkparvarlik
- Insonparvarlik
- Mehmondo'stlik
- Mehnatsevarlik
- Tinchlikparvarlik
- Fidoyilik
- Ziyolilik

Etikaning me'yorlari:

- Halollik
- Rostgo'ylik
- Hayolilik
- Insoflilik

- Xushfe'llik
- Kamtarinlik
- Bosiqlik
- Xudbinlik
- Shuhratparastlik

Xulosa: "Pinbord" metodini o'tkazish talabalarga seminar mashg'ulotda etikaning kategoriyalari, tamoyillari va me'yorlariga oid tushunchalarni o'z o'rnida qo'llashda foyda beradi.

"Kichik guruhlarda ishlash"

"Kichik guruhlariga bo'lish" maqsadlari quyidagilardir : 1- dars jarayonida yangi o'quv materialini o'zlashtirish; 2- amaliy topshiriqlarni bajarish; 3- tarbiya jarayonida ijtimoiy topshiriqlarni bajarish; 4- darsdan bo'sh vaqtlarini tashkil etish; 5- talabalarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish; 6 - shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash.

Guruhlarda ishlash uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Guruhlarda mashg'ulotni rejalashtirib, talabalarni 4-5 guruhga taqsimlash zarur, har guruhda 4 - 6 ishtirokchi bo'lishi mumkin.

Izoh: guruhlarning ko'pligi ish natijalari prezentatsiyasi va baholashi vaqtini cho'zib yuboradi; guruhda talabalar sonining ko'pligi guruh ishida faol ishtirok etish imkoniyatini cheklaydi.

2. Guruh tarkibini o'qituvchi belgilaydi. Guruhning tarkibi xilma-xil bo'lishi kerak. Barcha munosabatlarda "tabaqalashtirilgan" guruhlar tuzish mumkin. Eng zehni va qobiliyatli talabalar har bir guruhga kiritilib, zehni o'tkir bo'lmagan talabalarni ham har bir guruhga taqsimlash mumkin. Iloji boricha guruh tarkibini tez-tez almashtirishga harakat qilish lozim. Talabalar doimo bir tarkibda ishlashiga yo'l qo'ymaslik kerak.

3. Taqsimlashning birdan bir usulini 3-4 marta qo'llanganda u zerikarli bo'lib qoladi, shuning uchun guruhlariga taqsimlashning qiziqarli usullarini topish zarur (lotereya, alifbo bo'yicha, imkoniyat va qiziqishlar asosida va boshqalar).

4. Berilgan topshiriqni bajarish uchun guruh doira shaklida o'tiradi. Har bir ishtirokchi hammani ko'rmaguncha guruh ishni boshlay olmaydi. Ulardan biri yozadi ("rayter"), biri qilingan ishni so'zga chiqib himoya qiladi (spiker). Bu rollar ijrosini barcha guruh a'zolari navbati bilan bajaradi. Kichik guruh rahbarlarini tez-tez (1-2 xaftada, bir oy yoki chorakda bir marta) almashtirish kerak, chunki har qaysi talaba ham rahbar, ham bo'ysunuvchi sifatida guruhdagi ishlarni bajarishi lozim.

5. Kichik guruh uchun berilgan vazifani bajarishga aniq yo'riqlar ko'rsatish va yetarlicha vaqt berish zarur.

6. Guruh ishi natijalarining qanday shaklda topshirilishini aniq tushuntirish va u haqida guruhga kimni e'lon qilishi kerak bo'lsa, uni oldindan tanlab qo'yishi zarur.

7. O'qituvchi ish vaqtida doimo har bir guruh atrofida yuradi, chunki uni savollarga javob berish zarurati bo'lishi mumkin.

8. Guruhlarni baholash va mukofotlash tizimini ishdan oldin o'ylab topish va tushuntirish kerak. Muvaffaqiyatga erishilgan guruh-uchun albatta mukofot tayyorlanadi. Qimmat bo'lmasa ham shunday mukofotlar talabalarni rag'batlantiradi. Bajirilgan ishlar uchun kichik guruhlarning to'plangan ballari maxsus stendda ko'rsatiladi.

Talabalarni kichik guruhlarga taqsimlash uchun turli usullarni qo'llash mumkin. Masalan:

- ◆ 4 gacha sanash;
- ◆ mevalarning nomlariga ko'ra - olma, nok, olxo'ri, anor;
- ◆ geometrik shakllar nomi bilan - uchburchak, to'rtburchak, kvadrat, aylana va hokazo.

“KEYS-STADI” METODI

Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, study – ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir.

“KEYS-STADI” metodini amalga oshirish bosqichlari

- Keys bilan tanishuv (individual)
- Asosiy muammoni (o‘quv muammosini) ajratib olish va o‘rganish (individual va kichik guruhlarda)
- G‘oyalar yig‘ish va muammoning maqbul yechimini tanlash, modellashtirish (kichik guruhlarda)
- Keys yechimi uchun taklif etilgan g‘oyalarni taqdimoti, tahlil va baholash (o‘qituvchi va kichik guruhlar)
- Keys yechimi va tavsiyalar. (o‘qituvchi, kichik guruhlar va individual)

“Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari. shaxs axloqiy tarbiyasi” mavzusiga «Keys stadi» metodining qo‘llanilishi.

Dars mavzusi: (amaliy mashg‘ulot) Oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta’siri, erkak va ayolning o‘rni. Oilaviy munosabatlarga noan’anaviy yondoshuvlar: bir jinsli nikohlar, nikohsiz oilalar va ularning oqibatlari.

Darsning ta’limiy maqsadi: Axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an’analarning o‘rni, Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni. Davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma’lumotlar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, etikaning mezoniy tushunchalarini inson hayotida qo‘llay bilish ko‘nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirish, oilaning muqaddasligi ahamiyatini tushuntirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, axloqning insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an’analarning o‘rni, davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni, davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida

ma'lumotlar berish.

Darsda foydalaniladigan metod: "Keys stadi"

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o'qituvchi kirish so'zi bilan ochiladi. U kirish so'zida amaliy mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiytdagi axloqiy munosabatlardagi o'rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an'analarning o'rni, Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma'lumotlar beradi.

3. **"Keys stadi"** metodni o'tkazish.

Bu metoddan maqsad: ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgandir. Bu tashkiliy institutsional keys bo'lib, ma'lumotlar, vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, amaliy mashg'ulotlarga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Auditoriyadagi talabalarning sonidan kelib chiqib, jurnaldagi tartib raqamlari yoki, o'tirgan joydagi insonlarni qiziqishlari, yoki rangli qog'ozlarini tarqatib bir xillilarni ajratib olish yo'llari bilan guruhlarga ajratib olinadi. Har bir guruhga "muammo" tarqatiladi.

1 – vaziyat:

Yosh oila qurayotgan kelin - kuyovga o'z oilaviy shifoxonalariga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma berildi. Kuyov tuy taraddudi bilan vaqti yo'qligini vaj qilib bo'lim boshlig'i bilan "gaplashib" ma'lumotnomani bir amallab oladi. Kelin esa barcha qoidaga ko'ra ko'rikdan o'tadi. Bu yosh oila quruvchilar bir – birlariga

sogʻlom ekanliklarini bildirishdi va ularni FXDYo boʻlimida qayd etildi. 4 –5 oylardan soʻng kelin oilaviy shifoxonaga qaynonasi bilan chiqib, homiladorlik boʻyicha roʻyxatga qoʻyiladi. Olingan birinchi tahlillar kelinda zaxm kasali mavjud ekanligini koʻrsatadi.

Bundan xabar topgan er va qaynona kelinni “yengil tabiat ayol bizning xonadonimizga mos kelmaydi” – deb sharmandalarcha uydan xaydab yuborishadi. Bu yosh oilani tiklab boʻladimi?

2 – vaziyat:

Oiladagi ayol rahbar. Oila yumushlarini bajarishga, bolalar oʻrtasidagi muammolarni hal qilishga, turmush oʻrtogʻining ham koʻngliga yoʻl topa olishga ulgurmoqda. Oiladagi erkak ham rahbar. U faqat davlat ishlari bilan band. Ayol va siyosat sizning munosabatingiz.

3 – vaziyat:

Shunday vaziyatni tasavvur qiling: Siz bir oilaga kirdingiz. Shu oiladagi mavjud turmush tarzini nimalar orqali baholaysiz? “Sogʻlom turmush tarzi mustahkam oilaning garovidir” degan fikrga qarashlaringiz.

4 – vaziyat:

Yangi koʻchib kelgan qoʻshningizni qizi tashqi jihatdan oʻzining chiroyli odobi va axloqi bilan ajrab turadi, oilasi ham baobroʻ, hurmatga sazovor insonlar. Mahallaga kelgan kuyov tomonning vakillari sizlardan shu oila haqida maʼlumot berishni soʻrab qoldi siz va boshqa qoʻshnilar ular haqida toʻliq tasavvurga ega emassizlar sizning bu oilaga beradigan bahoingiz.

Shundan soʻng guruhdagilarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Ular oʻzlarining oralaridan bitta taqdimotchini tanlab oladilar va barcha fikrlarni jamlashni oʻqituvchi soʻraydi. Bunda vatman qogʻoz va markerlardan foydalangan xolda alohida ishlanadi. Vaqt tugagach bittadan taqdimot uchun 5 daqiqa beriladi shu vaqt ichida muammoni yechini topishga harakatlar boʻladi.

Xulosa: “Keys stadi” ni oʻtkazish orqali talabalar oʻrtadagi munosabatlar iliqlashadi, faollashadi, oilaviy munosabatlarga amaliy yondashiladi. Oʻqituvchi oʻz oʻrnida Davlatimizni oila institutiga boʻlgan munosabatini ilmiy jihatdan

asoslab berishga erishadi.

“DOMINO” METODI

“Etikaning maqsadi va vazifalari. Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy mohiyati” mavzusiga “Domino” metodining qo‘llanilishi.

Dars mavzusi: (seminar) Etikaning maqsadi va vazifalari. Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy mohiyati.

Darsning ta’limiy maqsadi: Etika fanining mohiyati, uning tadqiqot ob’ekti hamda ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligini tushuntirish; hozirgi kunda axloqning zamonaviy muammolari va ularga taalluqli bo‘lgan tushunchalar haqida ma’lumotlar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarga etikaning tadqiqot ob’ekti bo‘lmish odob, xulq, axloq tushunchalarini mohiyatini batafsil tushuntirib berish hamda hozirgi kunda inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqshunoslik yo‘nalishlari bilan tanishtirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, axloqiy tushunchalarini inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini his qilish hamda to‘g‘ri qo‘llay bilish ko‘nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan metod “Domino”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochiladi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib; bugungi kunda etika fanining ahamiyati, uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi; axloqiy tafakkur taraqqiyoti hamda axloqning zamonaviy muammolari haqida ma’lumotlar beradi.

“Domino” metodning o‘tkazilishi.

Bu metoddan maqsad bugungi kunda etika fanining nazariy va amaliy ahamiyatini batafsil yoritib berish orqali talabalarda odob, xulq va axloq tushunchalarini inson hayotidagi o‘rnini his qilish hamda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Guruhdagi talabalarning sonidan kelib chiqib 4-5 ta kichik guruh shakllantiriladi. Kichik guruhlar mavzuga oid bo‘lgan savollar va savolga javoblardan iborat kartochkalar tarqatiladi. "Domino" metodni o‘tkazish tartibi: kichik guruhlar berilgan kartochkalardagi savollarga to‘g‘ri javoblarni topib to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirishi kerak bo‘ladi. Kichik guruhlarning vazifalari bir xil bo‘ladi. Bu yerda asosiy maqsad qaysi guruh berilgan savollarga birinchi bo‘lib kuyib chiqishi kerak to‘g‘ri javob topadi va to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiradi. Kartochkalarni joylashtirish paytida bittasining javobi noto‘g‘ri joylashtirilsa barcha javoblar ketma-ketligi buziladi.

Tayyorlangan kartochkalar soni juft bo‘lishi talab etiladi hamda kartochkalar soni juda ko‘p bo‘lmasligi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Domino” metodning ishlanmasi

“Etika” fani	axloq haqidagi qarashlar tarixini va boy ma’naviy merosini o‘rganish asosida zamonaviy odob - axloq qoidalari va ularga amal qilishning ijtimoiy ma’naviy ahamiyatini o‘rganishdan iborat.
Fanni o‘qitishdan maqsad	-axloqning milliylik va umumbashariylik xususiyatlarini tahlil etish, zamonaviy axloqiy me’yorlarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish; - axloqiy kategoriyalarining inson hayotidagi belgilovchi o‘rnini aniqlash.
Fanning vazifalari	inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z

		ichiga oladi.
Odob		oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.
Xulq		jamiyat, zamon, ba‘zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma‘naviy hodisa.
Axloq		(grech. Hēdonē-lazzatlanish) - qadimgi davr falsafiy tushunchalaridan biri sifatida ko‘ngilocharlik, huzurlanish ma‘nolarini beradi.
Gedonizm		(grech. εὐδαιμονία—barqarorlik, huzurbaxshlik, baxt)— inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqshunoslik yo‘nalishlardan biri sanaladi.
Evdemonizm		har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan.
Etika	va	ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe‘l-atvori va mayl-istaklarini o‘rganadi. Bu o‘rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: biri u yoki bu xatti-harakat, fe‘l-atvor, sababiy asoslarning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, ikkinchisi esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.
Etika	va	o‘z mohiyatiga ko‘ra insonni siyratan baholaydi, unga mana bu – fazilat, bu esa illat deb, insonning mavjud xislatlarini tahlil qilib ko‘rsatadi.
ruhshunoslik		

Xulosa: “Domino” metodini o‘tkazish orqali talabalar fanning nazariy qismini chuqur o‘zlashtirishga olib keladi. O‘qituvchi o‘z o‘rnida fanning kategorial

tizimini ilmiy jihatdan asoslab berishga erishadi.

“ChARXPALAK” METODI

Metod talabalarda o‘rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to‘g‘ri javob berish, o‘z-o‘zini baholash malakalarini shakllantirish, o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqtda talaba larning bilimlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Uning maqsadi talabalarda mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o‘z-o‘zini baholash, individual, juftlik, guruh va jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, mavjud fikrlar orasidan muhimini tanlab olish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat.

“ChARXPALAK” metodini qo‘llash tartibi:

- O‘qituvchi talabalarni metodni qo‘llash tartibi bilan tanishtirib, ularni guruhlarga ajratadi.
- Guruhlarga tarqatmali materiallar va ular asosida topshiriqlar beriladi. Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10-15 daqiqa) belgilanadi. A‘zolar guruh tarkibida individual ravishda tarqatmali materialda ko‘rsatilgan vazifani bajaradi.
- Bajarilgan ishning o‘ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o‘ziga tegishli bo‘lgan biror belgini qo‘yadi.
- Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar boshqa guruhlar bilan “Charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi.
- Har bir guruh tomonidan yangi material mazmuni o‘rganiladi va o‘zgartiriladi.
- Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar yana bir bor boshqa guruhlar bilan “Charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi. Guruhlar o‘rtasida materiallarning o‘zaro almashtirish ularning soniga ko‘ra takrorlanadi.
- Guruhlar ularning har bir a‘zosi o‘z yechimlarini bitta qutiga yig‘adi. Materiallar so‘nggi bor almashtirilgandan keyin har bir guruh (har bir talaba) o‘zi bajargan yechimni guruh raqami va o‘ziga tegishli belgi asosida tanlab oladi.
- Har bir guruh va uning a‘zolari o‘zlarining yechimlarini boshqa guruhlarning ishlari bilan taqqoslab, tahlil qiladi. O‘qituvchi jamoa yordamida to‘g‘ri javoblarni

aniqlaydi. Tahlil asosida har bir guruh va talabalarning faoliyati baholanadi. Bir vaqtning o'zida talabalar ham o'z-o'zini baholaydi.

- Metoddan barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarida, mashg'ulotning boshi yoki oxirida, muayyan bo'lim (bob) yakunida, o'tilgan mavzuni takrorlash chog'ida foydalanish mumkin. Shu bilan birga metod talabalarning bilimlarini mustahkamlash, o'rganilgan mavzularning talabalar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash va baholashda ham samarali sanaladi.

San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San'at va uning turlari va ularning o'zaro aloqadorligi mavzusiga "Charxpalak" metodining qo'llanilishi.

Dars mavzusi(seminar): San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San'at va uning turlari va ularning o'zaro aloqadorligi

Darsning ta'limiy maqsadi: San'at estetikaning ob'ekti sifatida o'ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, da'vat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san'atning ko'makchisi, yetakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san'atning paydo bo'lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san'at asarining ichki murvatlaridan tortib, san'atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'rganadi. Ikkinchi tomondan, san'at uchun umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tatbiq etadi. Uchinchi tomondan, esa san'at asarini idrok etayotgan kishi ruhidagi o'zgarishlarni nafosat nuqtai nazaridan tadqiq qiladi.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san'at, adabiyot va ma'rifat ko'tarishiga shubha yo'q. San'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelganligini tahlil qilishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: San'at va uning turlari san'atning xususiyatlari va vazifalari, badiiy ijod jarayoni, ijodkor va idrok etuvchi hamda

san'at turlarning o'ziga xos xususiyatlarini tafakkur orqali talqin etishda hamda turli xil munosabatlarni o'rganishda insonga ko'mak beruvchi vosita ekanligini anglash bilan belgilanishini tushuntirib berishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan metod “ Charxpalak ”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni seminar mashg'ulotining mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o'qituvchi kirish so'zi bilan ochiladi. Seminar mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda san'at va uning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda estetika falsafiy fan sifatida barcha san'atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go'zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qilishi haqida ma'lumotlar beradi.

“ChARXPALAK” metodining mavzuga qo'llanilishi

Talabalarni sonidan kelib chiqqan holda 4 yoki beshta guruhga ajratish va qo'yidagi jadvalni berish. Kichik guruhlarda turli xildagi ruchkalar beriladi. Bajirilgan ishning o'ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o'ziga tegishli bo'lgan biror belgini qo'yadi va berilgan rangli ruchkada vazifani bajaradi shu asosida guruhlarni vazifalari bir-biridan ajralib turiladi. Jadvaldagi tushunchalarning ma'nosidan kelib chiqib xususiyatlar, tamoyillar va vazifalarga taalluqligini ruchka bilan ajratib belgi qo'yib chiqadi.

Jonlantirilgan ma'ruza

Ma'lumki, ma'ruza oliy o'quv yurtlarda talim berishning asosiy vositasi (quroli) hisoblanadi. Yaxshi tayyorlangan va tashkil etilgan, dinamik tarzda o'tkazilgan ma'ruza: yangi informatsiyani berishi, murakkab nazariy masalalarni tushuntirib sistemaga solishi, muammoni hal etish jarayonida ijodiy tafakkurni modellashtirishi, turli g'oyalar o'rtasidagi bog'lanishlarni tahlil qilishi va ko'rsatishi, bilim olishga intilishni shakllantirishi, ta'limni davom ettirish uchun tashabbus va motivatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari ma'ruza iqtisodiy jihatdan

ham qulaydir. Ideal tarzda ma'ruza talabalarni o'quv jarayoniga jalb etishi, ular o'rtasida o'zaro ta'sirni keltirib chiqarishi va qiziqish uyg'otishi kerak. Lekin, afsuski, bunday ideal holatga juda oz ma'ruzalar erisha oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hatto eng qiziqarli ma'lumot beruvchi ma'ruzalar ham 15 - 20 daqiqadan so'ng o'z unumdorligini yo'qotadi.

Hozirgi zamon oliy ta'limining talablarini hisobga olib, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi va o'rganilayotgan materialni faol tahlil qilishni rag'batlantiruvchi yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda quyidagi jonlantirilgan ma'ruza variantini havola qilamiz.

Jonlantirilgan ma'ruza - an'anaviy ma'ruzaning chuqurlashtirilgan variantidir. Mazkur ma'ruzada faoliyatning har xil shakl va turlari qo'llaniladi. Jonlantirilgan ma'ruza bilim, o'quv va ko'nikma hamda shaxsning emotsional-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ma'ruzani o'tkazish usuli:

1-qadam. Avvaldan ma'ruzani mantiqan tugallangan qismlarga bo'lib chiqing.

2-qadam. Talabalarga diqqatini materialning muhim jihatlariga jalb etuvchi vazifa bering. Vazifalar turlari:

1. Barcha bilimlarini jamlash maqsadida "aqliy hujum" o'tkazing. (Kichik guruhlarda) fikrlarni vatmonga yozib, doskaga ilib qo'ying.

2. Juftliklarda muhokama qilish uchun savol bering.

3. Boshlamoqchi bo'lgan ma'ruzaga tegishli bo'lgan atama va tushunchalar ro'yxatini ko'rsatib, 3 - 4 minutdan so'ng bu termin va tushunchalarni taxminiy talqinini berishni so'rang.

3-qadam. Ma'ruza materiallarini 5 minut davomida bayon eting (10 minutdan oshmasin).

4-qadam. Dastlabki natijalarni xulosalash, talabalar o'z fikrlarini ma'ruzada eshitgan g'oyalar bilan taqqoslaydilar.

5-qadam. Uncha katta bo'lmagan vazifalar beriladi (kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishlash uchun).

Vazifalar turlari;

-..... uchun nima qilmoq kerak

-..... bilan nima bo‘ladi?

-.....da qanday qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin va hokazo.

Ikkinchi qadamda bayon etilgan vazifalardan ham foydalanish mumkin. Muhimi ma’ruzani davomini tinglash uchun talabalarda qiziqish va intilish paydo bo‘lsin.

6-qadam. Ma’ruzani keyingi qismini 10 - 15 daqiqa bayon etish.

7-qadam. Ma’ruzaning bu qismi bo‘yicha fikrlarini xulosalash. Talabalar o‘z g‘oyalarini ma’ruzada bayon etilgan fikrlar bilan taqqoslaydilar.

8-qadam. Yakuniy vazifa:

1. Talabalar juftliklarga bo‘linib, ma’ruzaning muhim tamoyillariga tegishli bo‘lgan savolga javob beradilar.

2. Talabalar 10 minutli "esse" yozadilar.

3. Ular 5 daqiqada “chiqish karta”sini to‘ldiradilar.

O‘qituvchiga maslahat

Juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rishingiz, jonlantirilgan ma’ruza (prodvinutaya leksiya) o‘tkazishning turli variantlarini qo‘llay bilishingiz, improvizatsiya qilishga tayyor bo‘lishingiz lozim.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1–Mavzu: “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

Reja:

1. Falsafiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.

2. Soxaga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg‘or tajribalar.

3. “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning usullari va uslublari.

4. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari.

Tayanch soʻzlar: Etika va estetika, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, etika, estetika, axloq, nafosat, estetik bilim, estetik taʼlim, maʼnaviyat, etikani oʻqitish, estetikani oʻqitish, estetik dunyoqarash, axloqiy yondoshuv, kategoriya, goʻzallik, hunuklik, ulugʻvorlik, fojeaviylik, estetik obekt, muhabbat, nafrat, adolat, vatanparvarlik, millatparvarlik, sanʼat, nosanʼat obekti, texnika estetikasi, dizayn, sport estetikasi, tabiat estetikasi.

Maʼlumki, taʼlim tizimi barcha davrlarda ham davlat siyosatining asosiy boʻgʻini va jamiyatning manaviy kamoloti, yertangi kelajagini belgilab beradi. Shuning uchun ham istiqloqlarning ilk davrlaridan boshlab milliy taʼlim tizimini ishlab chiqishga katta urgʻu berilib amalda bu borada qonun va dasturlar qabul qilindi. Horijiy davlatlar eʼtirof etayotgan bugungi taʼlimdagi yutuqlarimiz olib borilayotgan amaliy Harakatlarning mevasidir. Milliy taʼlim tizimining joriy etilishi oʻquvchi-talabalarda faqat maʼlum fan sohasi boʻyicha oʻqitib bilim berish bilan chegaralanib qolmay ularning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi va estetik didini ham shakllantirishdan iborat. Ularning bilimi, intilishlari va imkoniyatlari bizdan behad darajada yuqori boʻlishini, halollik va poklik xislatlari, savob ishlarni qilishga intilib yashashlari hayotlari tarziga aylanishini orzu qiladi. Zero, yoshlarimizning axloqiy-estetik kamolotida umumbashariy yutuqlarni egallash, tariximiz, madaniyatimiz va buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosning ahamiyatini tobora chuqurroq anglash va uni taxlil qilib xayotda qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 1997 yil 29-avgustda qabul qilingan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi va hayotga tadbiiq qilinishi ushbu muhim sohada chuqur islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakatimizda taʼlim taraqqiyotining shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik hamda madaniy ehtiyojlarini taʼminlaydigan ustuvor sohasi sifatida qonunan belgilab qoʻyildi va asosiy eʼtibor shaxsning kamolotiga qaratildi.

Globalashuv davri oʻzi bilan ijobiy yangiliklar bilan birga milliylikka havf

soluvchi unsurlarni ham tashiydi. Shuning uchun globallashuv jarayonida axloqiy-estetik bilimlar ijtimoiy-ma'naviy zaruriyatga aylanishi kuzatilmoqda. Chunki yoshlarning globallashuv taqdim etayotgan keng imkoniyatlardan foydalanishdagi qoidalarni chetlab o'tayotgani o'larni birmuncha milliylikdan begonalashuviga olib kelishi noto'g'ri yo'llarni o'zlarida qo'llashi axloqiy-estetik bilimlarning dolzarbligini yana bir bor namoyon etadi.

Mamlakatdagi ta'lim-tarbiya tarixi va taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan asosiy voqea 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tizimga yangicha ruh va yo'nalish bag'ishladi, deya aytish mumkin. Maqsadli ta'lim asosida kadr tayyorlanishi tufayli ta'lim tizimi 7 bosqichga bo'linib undagi samaradorlik va kadrlarni kasbga yo'naltirish muvafaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda ta'lim asosida olib boriluvchi tarbiya jarayoni ham samarali amalga oshirilmoqda. Chunonchi, o'rta maxsus ta'lim tizimida "Odobnoma", "Tasviriy san'at", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi", "Musiqqa", "Ma'naviyat asoslari", "Madaniyatshunoslik", "Estetika" fanlari asosida estetik va axloqiy tarbiyani boyitishga e'tibor berilmoqda.

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Mazkur tamoyil xalqning axloqiy-estetik tarbiyasi nafaqat individual, balki mamlakatning saviyasini ham belgilaydi. Shu ma'noda, mazkur bobda estetik va axloqiy bilimlar o'zbekiston ta'lim tizimining asosi bilan bog'liq masalalar ilmiy taxlil qilinadi. buning uchun avvalo bilim nima, uning mohiyati va mazmuni nimadan iborat, undan so'ng estetik va axloqiy bilim nima, uning mazmuni, talqini, zaruriyati va ahamiyati qanday kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak.

"Bilim — ijtimoiy-tarixiy, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi; shu voqelikni inson ongida tasavvurlar tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan adekvat in'ikosi. Kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan

ma'lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi.”¹ O‘z o‘rnida bilim fanda shakl va smohalarga xam bo‘lib o‘rganiladi.

Estetik bilim chuqur va barqaror estetik qiziqishlarni hosil qilishi mumkin. O‘quvchidagi estetik bilim uni estetik faol bo‘lishga, faoliyatini namoyon qilishga tayerlaydi. Shaxs asta-sekin tevarak-atrofnı go‘zallik qonunlari asosida o‘zgartirishga, go‘zallik yaratishga harakat qiladi, chunki inson go‘zallikni nafaqat mushohada etadi, balki uni yaratadi ham. Estetik jihatdan tarbiyalangan odam xayotni go‘zal qilishga intiladi, estetik tomondan faol bo‘ladi. Shaxsning estetik faolligi xayotda go‘zallik yaratishda egallangan estetik ko‘nikmalarida: chiroyli, bejirim kiyinishida, madaniy muomalasida, o‘zini tuta bilishida, oila va ishda estetik muhitni yaratishida namoyon bo‘ladi.

Kuzatishlarimiz natijasida nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o‘quvchi-talabalarda quyidagi holatlar ko‘zga tashlandi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo‘lish;
- estetik tuyg‘uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go‘zalliklarini his etishi;
- go‘zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko‘rinishda go‘zal bo‘lishga intilish.

Axloqiy bilim mohiyatiga ko‘ra inson ongingning jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me‘yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas‘uliyatni his etishi, ma‘naviy-axloqiy bilimlarning e‘tiqodga aylanishi va bu e‘tiqodlarning tizimlilikı, mustahkam ma‘naviy-axloqiy

¹ «Фалсафа комуси» Ўзбекистон 2010 й.

his-tuyg‘u va xislatlarni shakllantirish, o‘quvchi-tadabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunga kelib etika va estetika fanlarining tadqiqot sohasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda, jumladan, sog‘liqni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi va bioetika, ekologiya sohasida – ekologik estetika va axloqiy muhit, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn) va axloqiy makon kabi sohalarning yuzaga kelgani shular jumlasidandir. Jamiyatda ma’naviyatni yuksaltirishni esa “Etika” va “Estetika” fanlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zotan, Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida farzandlarimizni milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelganligi, bu masalaga e’tibor bermaslik butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishi mumkinligi alohida qayd etiladi.

Aytish mumkinki, estetika insonning kundalik hayotiga g‘oyatda yaqin bo‘lgan fan hisoblanadi. Chunki, hozirgi tahlikali zamonada yashayotgan har bir odam go‘zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egasi bo‘lishi, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay olishi, «ommaviychilik san’ati»ning g‘ayri axloqiy xususiyatlarini rad qila bilishi lozim. Shuni xulosa qilgan jahoning klassik universitetlari ta’limda estetik bilimni mustahkamlashga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Jumladan estetika bo‘yicha Garvardda (AQSh) 3 ta markaz, 18 ta yo‘nalishda (bu yo‘nalishda estetika sohasiga doir 46 ta fan o‘qitiladi) ilmiy tadqiqot hamda ta’limiy ishlar olib borilmoqda. Oksfordda (Angliya) “Estetika” fakulteti tashkil etilgan bo‘lib, fakultetda shu sohaga doir 66 ta, Prinston universitetida (AQSh) “Estetika” kafedrasida 30 dan ortiq fan mavjud. Daniyada esa maxsus “Estetika” universiteti bor. Mazkur universitetlar hozirgi paytda jahon oliy ta’lim muassasalarining reytingida kuchli o‘ntalikning ichida turibdi. Bundan tashqari, Avstriya, Kanada, Angliya, Germaniya, Gresiya, Hindiston, Isroil, Eron, Italiya, Niderlandiya, Shvesariya, Shotlandiya, Norvegiya, Shimoliy Afrika

davlatlarida “Etika” va “Estetika” markazlaridan tashqari, oliy ta’lim muasasalarida “Etika” va “Estetika” nomi bilan alohida kafedralar faoliyat ko’rsatadi. Jumladan, mamlakatimizda O‘zbekiston Milliy universitetining Ijtimoiy fanlar fakultetida “Etika va estetika” kafedrasida faoliyat olib bormoqda.

1.3. Etika va estetika fanlarini o‘qitishga yangicha yondoshuvlar.

Etika fani bugungi kunda:

1. (Moskva davlat universitetining Etika kafedrasida) Falsafa fakultetida jami 48 soat
2. Televideniening oliy maktabi fakultetida – “Etika” fani
3. Politologiya fakultetida – “Siyosiy etika” fani
4. Sotsiologiya fakultetida - “Ishbilarmon muomalasi etikasi” fani
5. Oliy tarjima maktabida - “Tarjima va diplomatik protokol etikasi” fani o‘qitilib kelmoqda.

Keyingi 5 yilda o‘qilayotgan maxsus kurslar:

1. «Antichnaya etika»; «Etika Aristotelya»; "Aktualnye problemy etiki", "Negativnaya etika" (akademik RAN, professor A.A. Guseynov) - 40 chasov
2. "Normativnaya etika", "Istoriya etiki Novogo vremeni", «Filosofiya lyubvi», (professor R.G. Apresyan) - 48 chasov
3. «Biomeditsinskaya etika»; «Professionalnaya etika» (professor A.Ya. Ivanyushkin) - 30 chasov
4. «Nravstvennyye osnovaniya lichnostnogo bytiya», "Etika globalnykh problem" (professor A.V. Razin) - 30 chasov
5. «Stoicheskaya traditsiya v etike», "Moralnaya filosofiya Drevnego Rima", "Etika zaslug i etika blagodati A. Avgustina", "Etika B. Spinozy", "Ponyatie straxa" (dotsent A.G. Gadjikurbanov) - 66 chasov
6. "Etika delovyykh otnosheniy", "Etika biznesa" (dotsent T.I. Poroxovskaya) - 30 chasov
7. «Proisхождение morali» (D.S. Akimova) - 30 chasov

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston ta’lim tizimida axloqiy va estetik bilimlarning o‘rni belgilash uni oshirishda tizimdagi o‘zgarishlar qabul qilingan qonun, dastur

va ular asoda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning tarkibida ham e'tibor qaratilgan muhim jihat axloqiy madaniyatning eng yuksak namunasini o'zida jamlagan, estetik did, go'zallik va nafosatda milliylikni bilan birga zamonaviylikni uyg'un anglay va qo'llay biladigan kadrlarni tayyorlash ularni ishlab chiqarish va jamiyatning turli jabhalaridagi qaynoq nuqtalarga yetkazish kelajakdagi asosiy maqsad hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'limda etika va estetika fanlarining o'qitilish holati haqidagi fikringiz.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonun haqidagi fikringiz
3. Bugungi kunda estetika fanini o'qitilish holati haqidagi fikringiz.
4. Axloqiy-estetik muhit deganda nimalarni tushunasiz? Uning shaxsga qanday aloqadorligi bor?
5. Ta'lim tizimining axloqiy-estetik muhitga ta'siri deganda nimalarni tushunasiz?
6. Yoshlar tarbiyasida milliy ma'naviy kamolotning tadrijiy rivoji haqidagi fikringiz.
7. Ta'lim tizimidagi axloqiy-estetik fanlar muhim asos sifatida nimalarni aytib bera olasiz?
8. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil qilish tartiblarini izohlab bering.

2–Mavzu: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari.

Reja:

1. XXI asrning global muammolari: falsafiy tahlil.
2. Hozirgi davr axloqiy muammolari: ekologik axloq va etosfera.
3. Estetikaning zamonaviy muammolari: nafosat, did va san'at.
4. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo'lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta'siri.

Tayanch iboralar: Ziyoli kishi, axloqiy-estetik madaniyat, etiket, imidj,

zamonaviy axloqiy qoida, me'yor, amaliy etika, nutq madaniyati, notiqlik san'ati, kasb etikasi, axloqiy va estetik munosabat,

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin dastlabki o'rtaga tashlangan eng dolzarb muammolardan biri ma'naviyat bo'ldi. Hozir ham bu muammo jamiyatimizning diqqat markazida. Zero, ma'naviyatsizlik har qanday jamiyatni tanazzulga olib borishi shubhasizdir. Shu bois «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, o'quvchi shaxsi asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vatani va xalqiga sodiq fuqarolarni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarda «Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi», - deb ko'rsatiladi².

Darahqiqat, insoniyat tarixini axloqiy, madaniy, estetik taraqqiyotdan ayri xolda tasavvur etish mumkin emas.

«Estetik madaniyat» tushunchasiga ilmiy manbalarda turli fikrlar va ta'riflar beriladi. Jumladan, «Estetik madaniyat - estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol qilish usullarining majmui»³. Bu ta'rifda estetik madaniyat qadriyatlar doirasida olinib, uni jamiyatda tarkib topishi va o'zlashtirilishiga urg'u beriladi. Biroq, aslida estetik madaniyat shaxsni tabiatga bo'lgan intilishlari va uni o'zlashtirishga qaratilgan munosabatlarning mahsuli sifatida vujudga kelib, voqelik go'zalligidan bahramand bo'lish, turli shart-sharoitlarda o'z ehtiyojlariga

² Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т. «Шарқ» нашриёт-матбаа концернининг Бош таҳририяти. 1998. 55-бет

³ Фалсафа. Қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. -466 б.

qarab narsa va hodisalarni o'zgartirish asosida shakllanib kelgan.

Shuningdek, «Estetik madaniyat - bu inson ehtiyojlarining murakkab tizimi bo'lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko'nikmalari, bilimlari, me'yorlari, maslakhlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi»⁴dir. Mazkur ta'rifda estetik madaniyat ko'proq insonning ehtiyojlariga bog'liq hodisa ekanligiga urg'u berilgan bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yangilanib, iste'mol qilib borilishi nazarda tutiladi.

Yana bir ta'rifda, «estetik madaniyat insonning ma'naviy-hissiy faoliyati bilan bog'langan munosabatlar va qadriyatlar tizimini ifodalaydi»⁵, deyiladi. Bunda estetik madaniyat insonning ma'naviyati va falsafiy tafakkurining qadriyatlar tizimida shakllanishi asos qilib olinadi.

Bundan tashqari, shaxs estetik madaniyatiga nisbatan «Estetik madaniyat qadriyatlarini o'zlashtirish, shaxsiy va ijtimoiy tajribaning o'zaro aloqadorligi negizida amalga oshadi, unda shaxsning estetik dunyoqarashi, qadriyatlarga tanlab munosabatda bo'lish malakalari, go'zallik va mukammallik to'g'risidagi tasavvurlari, voqelik, san'at qadriyatlarini idrok etish shakllari, estetika, san'atshunoslik to'g'risidagi bilimlari muhim omil hisoblanadi. Shaxsning estetik madaniyati, shunday qilib, estetik qadriyatlarni yaratish, o'zlashtirish va iste'mol qilish usullaridan tashkil topadi»⁶, degan ta'riflarda shaxs estetik madaniyatiga maqsadli yondoshish va kelajakka estetik mohiyatni qarama-qarshiliklar va murakkab jarayonlar negizida to'g'ri yo'naltirish⁷ sifatida munosabat bildiriladi.

Estetik madaniyatga berilgan yuqoridagi ta'riflarda bu muammoning ayrim tomonlari, qirralari olinadi, ammo uning tub mohiyati ochilmay qoladi. Mazkur ta'riflar asosida estetik madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ya'ni estetik madaniyat bu – muayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilarning voqelikdagi narsa va hodisalarga nisbatan hissiy-emotsional va zavqiy munosabatda bo'lib, ularni ma'naviy-estetik qadriyat sifatida baholashining ifodasidir. Shuningdek, estetik madaniyat, inson va jamiyat moddiy-ma'naviy

⁴ Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxov'jayeva G. Estetika asoslari. –Tochkent: Cho'lpon, 2006 -B. 143.

⁵ Гулметов Э., Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. –Т.: Фан, 2000, -38 б.

⁶ Маданиятшунослик асослари. –Тошкент: Фан, 2006. – 84 б.

⁷ Пирадов А.В. Эстетическая культура личности. –Ленинград: Знание, 1978. – 6 с.

darajasi, ijtimoiy-siyosiy omillar, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-tarixiy hodisadir.

Mazkur ta'riflar estetik madaniyat tushunchasining keng qamrovli ekanligi, voqelikning inson faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi, har bir zavqiy munosabat estetik dunyoqarashning negizida rivojlanib borishni o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, estetik madaniyat – bu inson jismoniy va ma'naviy kamolotining voqelikka nisbatan zavqiy munosabatining ifodasidir.

Estetik madaniyatning metodologik asoslari shaxsning estetik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, insonda zavqiy munosabatlarni shakllantiruvchi his-tuyg'u, malaka, ko'nikma, me'yor va mezonlar bilan uzviy aloqador bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, shaxsning voqelikni idrok etishi bilvosita estetik hissiyotlarda namoyon bo'lib borishini ko'rsatadi.

Jamiyatda shaxs estetik madaniyati turli xil narsa va hodisalar o'rtasidagi jarayonlarning o'zaro aloqadorligi asosida rivojlanadi. Bu shaxsning ongida hosil bo'ladigan tasavvur va fikrlar yig'indisi estetik mohiyat kasb etgan quyidagi qonuniyatlarda o'z ifodasini topadi.

1. Estetik madaniyat unsurlarining notekis rivojlanishi;
2. Estetik madaniyatlar taraqqiyotining notekis rivojlanishi;
3. Estetik madaniyat bilan tabiiy muhitning mutanosibligi;
4. Ma'naviy ehtiyojlarning estetik madaniyat taraqqiyotiga mos ravishda o'sib borishi;
5. Ijtimoiy tuzum bilan estetik madaniyatning aloqadorligi;
6. Shaxs estetik madaniyatining shakllanish xususiyati;
7. Estetik madaniyatning vorisiylik qonuniyati;

Tabiat va jamiyat rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan estetik madaniyatning bu qonuniyatlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, ayniqsa, san'at, axloq, huquq, din, fan va ta'lim sohalarida amal qilib, madaniyat nazariyasining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ularning har biri jamiyat rivojida alohida-alohida shakllanib, shaxs dunyoqarashi va estetik ongining taraqqiy etishiga olib keladi.

Axloq normalari, axloqiy yetuklik mezonlari ma'lum bir tarixiy davrning, sharoitlarning imkoniyati va extiyoji bilan belgilanadi. Axloqlilik, axloqsizlikning mezonlari xar bir muayyan davrdagi kishilarning xatti – harakatlarini konkret sharoitlardan, extiyojlardan kelib chiqqan holda ta'qiqlash yoki ma'qullashdir. Axloqiy taqiqlar jamoatchilik fikri, qonunlar turli e'tiqodlar asosida belgilanadi. Axloqiy yetuklik darajasini ham bir shaxs emas, balki jamoatchilik belgilaydi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy yoki g'ayriaxloqiy deb baholash jamiyat a'zolarining iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, manfaati darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Farobiyning "Fozil odamlar shahri" nomli asarida adolatli jamiyat qurishga qodir bo'lgan insonlarning axloqiy fazilatlarida quyidagi muhim sifatlar bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi:

1. Jismoniy salomatlik va aqliy kamolotning birligini ta'minlash zarur. Bunday odamlarning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarni osonlik bilan bajara olsin.

2. Barcha masalani, muhokama va munozarani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrlarning chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin.

3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan – eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay yodida saqlab turadigan bo'lsin.

4. Zehni shu darajada o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezish bilan bu alomat nimani bildirishini tezdan bilib olsin.

5. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan muloxazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

6. Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni bilmay osonlikcha o'zlashtira olsin.

7. Ovqatlanishda, ichimlik ichishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlari o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin.

8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, yolgʻon va yolgʻonchilarga nafrat bilan qaraydigan boʻlsin.

9. Ruhning gʻururi va vijdonini qadrlaydigan boʻlsin, uning ruhi oʻz tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan boʻlsin.

10. Dirxam, dinor va shu kabi turkumga qarashli buyumlarga jirkanch bilan qaraydigan boʻlsin.

11. Oʻz tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga xayrixoh, adolatsizlik qilib jabr – zulm oʻtkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan boʻlsin, oʻz odamlari va boshqalarga adolatli boʻlsin, guzal va yaxshi hisoblangan barcha narsalarni barchaga taqdim etgan xolda odamlarni adolatga targʻib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yoʻqotadigan, ularga yoʻl qoʻymaydigan boʻlsin.

Adolatli boʻlsin, ammo qaysar boʻlmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, oʻzbilarmonlikka berilmasin, lekin xar qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli boʻlsin, oʻzi zarur deb topgan narsasini amalga oshirishda qatʼiylik koʻrsatsin, qoʻrqmas, jasur boʻlsin, qoʻrqish va ojizlikni bilmasin.⁸

Gedonizm (grech. *hendone* — lazzatlanish) — qadimgi davr falsafiy tushunchalaridan biri sifatida koʻngilocharlik, huzurlanish maʼnolarini beradi. Qadimgi davr axloqshunosligida gedonizm (huzurbaxshlik taʼlimoti) hayotning maʼnosini nafaqat jismoniy, balki ruhiy huzurbaxshlikdan ham iborat degan taʼlimotni ilgari surar edi. Hozirgi davrga kelib esa bu tushuncha akasariyat holda oʻzida xudbinlik, «nafs quliga aylanish», «boylik, shuxrat ketidan quvish» kabi maʼnolarini ham anglatmoqda.

Gedonizm (huzurbaxshlik taʼlimoti)— bu oʻziga xos hayotga boʻlgan yondoshuv boʻlib, hayotda asosiy maqsadning birinchi pogʻonasiga lazzatlanish va huzurbaxshlik qoʻyiladi. Bunday qarashlarning ibtidosi qadimgi yunon faylasufi Aristipp Kirenskiyning taʼlimotlariga borib taqaladi. Faylasuf axloqshunoslikning yaxshilik tushunchasiga nisbat berar ekan, uni huzurbaxshlik bilan bogʻlaydi. Yaʼni nima insonga huzur baxsh etsa shu yaxshilikdir degan xulosaga keladi. Bunday xulosa oʻsha davrning aksariyat olimlarining bu yondoshuv ketidan

⁸ Фаробий. Фозил одамлар шахри. Т.1993. Б.186 – 187.

ergashishiga va gedonchilar yoʻnalishini paydo qilishiga asos boʻlib xizmat qildi. Shu tariqa ijtimoiy tartiblar erkinlik va oʻzini toʻliq namoyon qilishni cheklaydigan shartlar sifatida qarala boshlandi.

Yillar osha bu qadimgi tushuncha global ahamiyatga molik axloqiy masala sirasiga kira boshladi. Dunyo miqyosida hozirgi kunda huzurbaxshlik taʼlimotining taʼsiri kun sayin kuchayib bormoqda. Yashashga boʻlgan intilish ashyoviylik, moddiylik bilan yoʻgʻrilib, insonlarni yelkasiga yanada ogʻirroq boʻlgan yuklamani ortmoqda. Natijada zamonaviylik «hayotdan toʻliq zavq olish» shiori ostida uni yanada yorqinroq, chiroyli va dabdabali kunga aylantirishga intilish kuchaydi. «Sabr», «shukr», «minnatdorchilik», «kelajakka umid» degan tushunchalar nozamonaviylik, noreallik tarzida qabul qilinyapti. Bunda eng yaxshi hayot tarziga ega boʻlish eng yaxshi narsalarga ega boʻlish bilan belgilanadi. Qimmatbaho buyumlar, mazali taomlar, eng yaxshi moddiy taʼminot baxtning belgisi sifatida namoyon boʻlar ekan, axloqiy anglash muammosi bu borada qay darajada muhim ekanligini belgilaydi.

Shu jihatdan ham, hozir ushbu taʼlimot sogʻlom va nosogʻlom turlariga ajrala boshladi. Nosogʻlom turi nafaqat oʻzini, balki boshqalarning ham hayoti, yaʼni yashash tarziga «halaqit» beradi. Aynan moddiy yetishmovchilik tufayligina boshqa insonlarni qadrini, oriyatini, izzatini oyoq-osti qiladi. Ularni tahqirlaydi. Insonning mohiyati emas, uning tashqi koʻrinishi, u bogʻlangan va foydalanayotgan narsalariga boʻlgan qiziqishning kuchliligi, Kamyu tili bilan aytganda obʼektni sizdan «begonalashuviga» olib keladi. Biz oʻzimiz bilmagan holda uni nafratiga sabab boʻlamiz. Unda oʻzini, yoki boshqalarni oʻlimiga intilish hissini uygʻotamiz.

Amaliy etika, soʻzning keng maʼnosida, etika tushunchalari va nazariyalarini muayyan, murakkab va koʻpincha juda dramatik vaziyatlarga tatbiq etish demakdir. Unga kazuistika («casus» - tasodif soʻzidan), yaʼni cheksiz tasodiflar yoki pretsedentlarni koʻrib chiqish deb qarash ham mumkin. Ammo unga yanada kengroq - chuqur falsafiy maʼnoga ega boʻlgan va inson haqida tubdan yangicha tasavvurlarni shakllantiradigan yangi yoʻnalish deb qarash uchun barcha asoslar

mavjud.

Amaliy etika deganda, tor ma'noda, amaliyot ta'sirida yuzaga kelgan va amaliy etikaning alohida turlari (siyosiy etika, ekoetika, bioetika, jurnalist etikasi va sh.k.) paydo bo'lishiga olib kelgan hodisa tushuniladi. Bioetika, klassik tibbiyot etikasidan farq qiluvchi yangi yo'nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va jadal rivojlana boshladi.

Jamiyatdagi xar bir inson yakka xolda, tashqarida yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, xayot kechiradi, uning butun xayoti va faoliyati davomida xar – hil toifadagi ko'plab insonlar bilan muloqotda bo'ladi. Bu insonning kundalik xayotiy extiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Jamoa bo'lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf – odat, an'ana va qonun – qoidalarga amal qilishni talab etadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan ob'ektiv a'loqadorlik, ya'ni ijtimoiy munosabat – xulq atvor, odob, xatti – harakat, prinsip va normalarning majmuasi axloqning mazmun mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbai jamiyat extiyoji va manfaatlaridan iborat.

Amaliy etika fani o'z mohiyatiga ko'ra insonga tashqaridan baho beradi, unga “bu – fazilat, bu esa illat”, deb insonning mavjud xislatlarini taxlil qilib ko'rsatadi. Bu fan mavjud dalillarni qiyosiy o'rganib, ularga jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kelib chiqib baho beradi.

Amaliy etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. «Axloq» so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe'lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot ob'ektini anglatrsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarini muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning xayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarning majmuidir.

Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Milliy mustaqillikni mustaxkamlash jarayonida amaliy etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rnini. Vatanparvar, millatparvar, halol shaxsni – zamonaviy barkamol insonni voyaga yetkazish va XXI asrda umumjahoniy miqyosda axloqiy muhitni yaratishga xizmat qilish amaliy etika fanining eng dolzarb vazifalaridan ekanligi haqida ma'lumot berish.

Amaliy etikaning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri - amaliy etikada milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy kamil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan yetuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o'ta siyosiy lashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy parvozlarga da'vat etuvchi botiniy kuchdir.

Inson ma'naviyatida bir qator jihatlar va xususiyatlar mujassam: hayo va andisha, vafo va sadoqat, himmat va sahovat, mehr va shafqat, vijdon va oriyat, o'ktamlilik va zakiylik, muloyimlik va kamtarinlik kabi insoniy fazilatlar ma'naviyatning axloqiy asosi hisoblanadi. Bu asoslarni faylasuf Abdulla Sher tomonidan talqin etilgan axloqning odob, xulq kabi ma'naviy doirada amal qilishi va «Axloq – jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy

kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa"⁹, ekanligi bilan izoxlash mumkin.

Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o'zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. Shaxsning faoliyatiga nisbatan axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Zero, axloqlilik – shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma'naviy mezonlariga mos kelishidir. Barcha axloqiy xatti- harakatlar tahliliga ma'naviy asos bo'lgan iymon, vijdon esa inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko'proq shu ichki qonunga tayanib ish ko'radi.

Amaliy etika keng ma'noda etikaning alohida turidir, chunki u axloq muammolari haqida yangicha tushuncha beradi, mazkur muammolarga yangicha yondashuvlarni amalga oshiradi.

Har bir insonga tegishli bo'lgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish jarayonida etika tamomila boshqa fanga aylanib boradi. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarning qonunlari, etikaning muammolari doirasi o'zgardi – endilikda u ijtimoiy va siyosiy masalalardan ham ko'ra ko'proq tibbiyot, biologiya va ekologiya masalalari bilan qiziqmoqda.

2.4. Pedagogik faoliyatda nutq madaniyati va notiqlik san'atining zaruriyati.

Yaxshi munosabat qoidalariga bag'ishlangan ko'p jildli asarida amerikalik yozuvchi Alisa soun «O'zingning obro'yingni saqla, o'zingdan past madaniyatli kishilarga o'xshama. Esingda bo'lsin, sen undan libosing, qaddi-qomating, hatti – harakating va odobing bilan ustun bo'lishga harakat qil» deb yozgan. Aynan o'z obro'sini saqlashni his etish tuyg'usi aholiga va sayyohlarga xizmat ko'rsatadigan korxonalar xodimlarining o'z burchlarini sifatli ado etishga, iste'molchilarni aldamaslikka, ular bilan etiket talablariga ko'ra xushmuomalalik qilishga, o'zini yomon yo'llardan qaytarishga va tashqi qiyofasini yaxshilashga hamda jamiyatning boshqa talablariga itoat qilishga majbur qiladi. Axloq normalari axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy munosabatlarning tarkibiy

⁹ Абдулла Шер. Ахлоқшунослик //Дарслик. Т. Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамияти, 2010. 6-б.

qismi va axloqiy ong shakllarida mavjud bo‘ladi. Axloq prinsiplari-umumlashgan axloqiy tushunchalar bo‘lsa, axloqiy normalar axloqiy prinsiplarga rioya qilish uchun qanday axloqiy xislatlar zarurligini ko‘rsatadi.

Muallim o‘z bilimlarini yoshlarga uzatib, ularning timsolida hayotini uzaytirgandek bo‘ladi, olim o‘z shogirdlari timsolida o‘z ruhini kelajakka ko‘chirsa, maslakdosh hamkasblari orqali o‘z makonini ken-gaytirishga harakat qiladi. Xuddi shunday, siyosiy arbob yoki rahbar o‘z g‘oya va fikrlarini hayotga tadbiq etish, o‘z ishlarini davom ettiradigan maslakdoshlarni shakllantirish orqali hayotda iz qoldirib, kelajakka oshno bo‘lishga intiladi. Demak, hamfikir, maslakdoshlarni shakllantirish xar bir insonga o‘z ma‘naviy, intellektual hayotining muddatini uzaytirish uchun kerak.

Inson ma‘naviy madaniyatining asosiy mezonini – axloqiy yetuklik xisoblanadi. Axloqiy yetuklik esa o‘zida – halollik, insoflilik, vijdoniylik, sahoatpeshalik, shafqatlilik, mehribonlik singari axloqiy fazilatlarini mujasaam etadi. Shunday ekan, muomala madaniyatining asosiy mezonini yaxshi xulq va guzal fazilat uyg‘unligi tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan biri, uning o‘zini yashashi, turmush uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanligidir. Bu malaka insonning insonlararo muomala madaniyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko‘rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruxiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta‘sir o‘tkazadilar va ta‘sirlanadilar. Shu boisdan muomala ijtimoiy kategoriya sifatida turmushning barcha sohalarida qo‘llanish mohiyatiga ko‘ra bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Dastlab «muomala» va «aloqa-kommunikatsiya» tushunchalarining o‘xshash tomonlarini aniqlab olish lozim. Aloqa-kommunikatsiya - yalpi aloqaning bir turi bo‘lib, yo‘naltirilgan aloqa deb yuritiladi. U mohiyatan ma‘lum bir hodisa haqidagi ma‘lumotni boshqalarga uzatadi. Masalan, ommaviy vositalarida ko‘rsatuv uchun yo‘naltirilgan ma‘lumotlarda muomala aloqa-kommunikatsiya

vositasi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, bunday xolatda muomala eng avvalo subekt-obekt munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Muomala jarayoni ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra axborot yoki ma'lumotlarni shunchaki uzatish va qabul qilishga qaraganda kengqamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro ta'sirini murakkab tizimi hisoblanadi. Shunga ko'ra muomala akti bir insonning boshqa inson(lar) bilan muomalaga kirishib, unda o'zining o'xshash xususiyatlarni topa olishi, ularga munosib javob qaytarishi, ular bilan o'zaro muloqotda optimal darajaga erishsagina o'zining muomala jarayonidagi munosib o'rniga ega bo'ladi. Bunday xolatda muomala eng avvalo, subekt-subektga munosabati tarzida ko'zga tashlanadi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, ko'pgina ilmiy-ommabop adabiyotlarda mualliflar «muomala» va «kommunikatsiya» tushunchalarini sinonim tarzida ishlatadilar. Aytish mumkinki, muomala jarayon sifatida tugal natijani obektiv ehtiyojlar, aniq manfaatlar, maqsadlar, tuzilmalar, vositalar, muomala texnikasi nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadi. U paydo bo'lgandan boshlab ilmiy tavsiflanadigan qator daraja va bosqichlardan o'tib kelgan.

Shuningdek, muomala hamkorlik faoliyatining muhim omili ekanini alohida ta'kidlash lozim. Muomalaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalardagi hamkorligi ikkala tomonning manfaatiga asoslanadi. Shunday bo'lgan taqdirdagina, muloqot samarali yakunlanishi mumkin. Bu borada mamlakat Prezidentlarining davlatlararo har tomonlama shartnomani imzolash uchun olib boradigan muloqotlari yuqoridagi fikrlarga misol bo'ladi.

Shunday xolatlar ham bo'ladiki, muloqot jarayonlarida hamkorlarning o'zaro muloqotida umumiy manfaatlar kuzatilmaydi, shu bilan birga bu xolat hamkorlikning uzilishiga ham olib kelmaydi. Bunday xolatni aksariyat xollarda siyosiy, iqtisodiy soha vakillarining o'zaro kuzatuvchi va ekspert sifatida ishtirok etgan uchrashuvlarda kuzatiladi.

Muomala madaniyatida xushfe'llik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy me'yorlar muhim sanaladi.

Biz shulardan ayrimlarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xushfe’llik. Ushbu axloqiy hatti-harakat me’yoriylik nuqtai-nazaridan g‘oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma’lum ma’noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe’ll, shirinsuxan inson o‘zining har bir muvoffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g‘azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o‘tkazishga intilmaydi. Atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o‘ziga ham, o‘zgalarga ham ko‘tarinki kayfiyat, tarli-tuman omadsizliklarning o‘tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag‘ishlaydi. Jamiyat doimo o‘shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o‘rnak olishga intiladi.

Xushfe’llik, shirinsuhanlik qay darajadadir ko‘proq ihtiyor bilan, kishining ma’lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, bosiqlik, kamtarlik, kamsuqumlik aksincha, ko‘proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o‘z g‘azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so‘zlagisi, biror-bir gap bilan o‘zini ko‘rsatgisi kelib qolganda o‘sha istakni to‘xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. Shu bois muomala bosiq, kamtarin (yetti o‘lchab bir kesish) tamoyili asosida ish ko‘rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo‘ladilar.

Xushmuomalalik. Muomalaning asosiy manbaini so‘z tashkil etishi barchamizga ma’lum. Shuningdek, so‘z insonning botinidan chiqishi, inson botindan chiqadigan so‘zga egalik qila olishini ham bilamiz. Biroq, tashqariga chiqqan so‘z insonning o‘zini qulga aylantirib qo‘yishini doim ham bilavermaymiz. Ya’ni, og‘izdan chiqqan yaxshi-yomon so‘z bevosita insonning ruxiyatiga o‘rnashadi: yaxshi so‘z bilan muomala qilinsa – yaxshilik topiladi, yomon so‘z bilan muomala qilinsa – yomonlik.

Xushmuomalalik ijtimoiy ahamiyatgiga ko‘ra xushfe’llikka nisbatan kengqamrovliroqdir. U insonning ham hatti-harakati, ham muloqoti natijasida vujudga keladi. Xushmuomalalik o‘z ichiga muloyimlik, murosai-madora, oxistalik, tagdorlik kabi sifatlarni qamrab oladi.

Shuningdek, xushmuomalalik qat’iy tartibga asoslagan axloqiy me’yor

hisoblanadi: u o'zganı ranjitmaslik, birovga yomon so'z aytmalik, baxs-munozaraga kirishganda muholifni hurmat qilish, qo'rslik va chapanilikdan xoli bo'lish hamda suhbatlashganda ehtiroslarga berilmaslikni talab etadi.

Hayo-ibolilik. Hondamir, Vosifiy va boshqa zamondoshlarning asarlaridan bilamizki, Navoiy g'oyat tabiati nozik, pok, xushxulq va o'ta nazokatli kishilarni yaxshi ko'rgan, o'zi ham juda noziktabiat inson sifatida nom qozongan. Shu sababli u «Mahbubul qulub»dagi «tanbeh»larida hayo, beozorlik sifatlariga alohida urg'u berib ta'riflaydi. Vafo va xayoni uyg'unlikda ko'rgan shoir «vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q» deb ta'kidlaydi. Demak, bu tushunchalar bir-biriga juda vobasta. Chunki ma'rifatli, komil insonlar hayoli va vafodor kishilardir. Vafosizning jabri qancha bo'lsa, hayosizning shallaqiligi, betga choparligi, beandishaligi ham shuncha ozor keltiradi; shoir buni o'zi boshidan o'tkazgan: «Zamon ahli bevofalig'din ko'ksunga tunganlar va davron hayoli behayolig'idin bag'rimda tikanlar... har qaysig'a raqam uray desam Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suay desam Nuh umrida tamomg'a etmas». Shoir alam bilan yozgan:

Yo marhamat ul xayli sitamkoraga bergil,

Yo sabru tahammul meni bechora bergil.

Muloyimlik. Muloyimlik barcha mutafakkirlar nazarida kishining maqbul sifatlaridan biri, deb e'tirof etiladi. Muomala madaniyatida muloyimlik «xilmli», «yumshoq tabiatli» degan tushunchalar bilan bir ma'noni anglatadi. Bu tushuncha achchig'lanmaydigan, ehtiyotkor, so'zini o'ylab gapiradigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Biroq, muloyimlikning kamchiligi shuki, bunday sifat sohiblari aksar odamlarga yoqmaydi.

Beozorlik. Insonlarning tabiatidagi husumat, adovat, g'azab kabi illatlar bu kabi odamlardan xoli. Ular barcha mas'uliyatni o'z zimmalariga olsalar-da birovga yomonlikni ravo ko'rmaydilar, og'irliklarini o'zgalarning zimmasiga yuklamaydilar. Beozor kishilar matonatli bo'la turib, o'zidan ojiz kishilarga qahr bilan muomala qilmaydilar.

Umuman olganda, axloqiy me'yorlarning muomala madaniyatidagi ko'rinishlari talaygina. Biz shulardan ayrimlarigagina to'htalib o'tdik. Shunday

ekan, muomalada pirovard natijada quyidagicha xulosa chiqarish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz: agar axloqshunoslikning me'zoniyl tushunchalari bir-biriga bog'liq bo'lsa, axloqiy tamoyillarning bog'liqligi yanada mustahkamroqlar biridan ikkinchisiga o'tib turish xususiyatiga ega; axloqiy me'yorlar bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, ba'zan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

Ma'lumki, har bir talaffuz qilingan jumlada talaffuz qiluvchining ruxiy-aqliy olami aks etib turadi. Ya'ni, u so'zni qanday va qay tarzda qo'llay olishi bilan suhbatdoshiga o'zi mansub bo'lgan ichki olam, uni qonun-qoidalari haqidagi habar mazmunini ham yetkazadi. Avvalo, so'zlovchi ongida olam haqidagi biror habar, fakt mavjud bo'ladi. qaerda tovush obrazi talaffuz qilingan ongdagi tushuncha bilan uyg'unlashsa, o'sha yerda ko'ngildagidek muloqot yuzaga keladi. Aksincha, tovush obrazi tinglovchi ongida biror tasavvur-tushunchani uyg'otmasa bundan muvoffaqiyatsiz muloqot yuzaga keladi. Shu bois nutqiy muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat g'oyatda muhim hisoblanadi. Agar so'zlovchining ham tinglovchining ham so'zi ko'cha-jargon so'zlar bilan to'lib-toshgan bo'lsa, fikrini qiynalib, poyma-poy gapirsa, talaffuzi bo'lmasa, bu xolatda eng mazmundor suhbat ham o'z mohiyatini yo'qotadi.

So'zlashuv madaniyati har bir til birligini sharoitga qarab, yillar mobaynida qabul qilingan me'yorlar asosida qo'llash san'ati hisoblanadi. Masalan, so'rashish, salomlashish madaniyatini olaylik. So'rashish barcha xalqlarning muomala madaniyatidagi muhim vosita bo'lib, u har bir xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda o'ziga xos ko'rinishga ega. Ta'kidlash zarurki, so'rashish bilan salomlashish aynan bir tushunchalar emas. Salomlashish barcha xalqlarda salom berish odobi qoidalariga asoslanadi, u faqatgina qo'l berib ko'rinishdan iborat emas. So'rashish esa so'z, imo-ishora, mimika va hatti-harakat orqali ham amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u inson faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

O'zbeklarda nutqiy muomala madaniyatida jamoa, odamlar bilan hamjihatlikda bajariladigan hashar, obodonlashtirish ishlarida ishtirok etayotganlarga «Hormanglar» deyiladi va ular tomonidan «Salomat bo'ling» yoki

«Bor bo‘ling» degan javob qaytariladi. Hosil yig‘im-terimi paytida hirmon tepasida ko‘rishganda esa «Hirmonga baraka» deyiladi va ular tomonidan «Umringizga baraka» degan javob qaytariladi. Mazkur so‘rashish madaniyatiga e‘tibor bersangiz, murojaat oxangi ham, javob ohangi ham mantiqiylik, nafosat hamda kishiga xush yoqadigan tarzda ifoda etiladi. Bu so‘zlarning qudrati shundaki, ularni jaxl ustida, g‘azab bilan aytsangiz ham birovga og‘ir botmaydi.

Tariximizga nazar solar ekanmiz, o‘zbek tili ham o‘tmishda naqadar boy, so‘rashish uslublari xilma-xil va katta e‘tiborga ega bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, ajdodlarimiz mehmonni «Hush kelibsiz, qadamlaringizga hasanot!» deb kutib oladi. Agar mehmon aziz, muhtaram va orziqib kutilgan bo‘lsa, u bilan so‘rashganda nihoyatda latif va sog‘inch so‘zlarni ishlatishga harakat qilingan. E‘tiboringizni O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» nomli tarixiy romanidagi Qutlug‘ Turkon oqa xonadoniga tashrif buyurgan Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalarni kutib olish jarayonidagi so‘zlashish madaniyatiga qaratmoqchimiz (tagiga chizilgan so‘zlarga e‘tibor berishingizni so‘raymiz-*mualliflar*): «Saroymulxonim darvozadan kirgani hamon:

-Assalomu aleykum, g‘amguzorim mehribonim egachim!-deya ta‘zim bajo ayladi va o‘zini qutlug‘ Turkon oqaning quchog‘iga otdi.

Ollohga shukr! Ollohga shukr! - egachi ardoqli kelinini bag‘riga bosganча uzoq vaqt qo‘yib yubormadi...

Umarshayx Mirzoning onasi To‘lun oqa, Mironshox Mirzoning onasi Mengli bika va Tog‘ay Turkon oqalar nim tabassum ila muhtarama egachining katta xonim bilan ko‘rishishayotganini kuzatib turardilar.

-Marhabo, xonadonimizga xush kelibsizlar! – uyga taklif etdi egachi quvonchi cheksiz, mehmonlar bilan ko‘rishib bo‘lgach...Malikalar shohona bezatilgan dasturxon atrofiga tiz cho‘kishdi. Duoi fотиha tortildi.

-Barchangizga podsholiq qutlug‘ bo‘lsun, ardoqli kelinlarim!-dedi qutlug‘ Turkon oqa qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib.

Kelinlar va kanizaklar o‘rinlaridan turdilarда tavoze bilan egachiga bosh egdilar:

-O‘zingizga ham qutlug‘ bo‘lg‘ay, ey bonuyi kubro hazrati oliyalari!..»¹⁰

Mazkur muloqotni so‘zlashuv madaniyatining o‘ziga xos namunasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, “g‘amguzorim”, “mehribonim”, “muhtarama”, “ardoqli”, “qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib”, “bonuyi kubro” iboralari bilan qilinadigan har qanday murojaat o‘zining nafosati bilan kishi dilini xushnud qiladi, insonga xush yoqadi.

Har qanday muloqotda so‘z asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, bu so‘zlashuv madaniyatida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Salomlashish ham so‘zlashuv madaniyatining bir ko‘rinishi sifatida inson odobining mahsulidir. *Salomlashish* - insonga nisbatan hurmat belgisi bo‘lib, u odamlar orasidagi o‘zaro muomala munosabatining boshlanishi hamda muloqotning debochasidir. Salomlashish odobini mazmun-mohiyatiga ko‘ra turli xalqlar turlicha o‘zlashtirganlar. Olaylik, Yevropa xalqlarida bosh kiyimni yechib salomlashish madaniyatilik belgisi hisoblansa, Sharq xalqlarida qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salomlab berish hurmat belgisi sanaladi.

Har qanday axloqning, xulqning va odobning me‘zonlari davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib (yoki zaiflashib) boradi. Bu jarayon muhit, munosabat, an‘ana va odat kabi bashariyat tomonidan shakllangan omillar bilan bog‘liq. Salomlashish ham bu jarayonlardan xoli emas: u ham o‘zgaradi. Shuni aytish kerakki, salomlashish faqat so‘z bilan emas, balki hatti-harakat orqali ham amalga oshiriladi. Bunday xolatni bugungi kunda turli xil ko‘rinishlari mavjud: qo‘l berib, quchoq ochib, o‘pishib, boshni boshga urib (bu ayniqsa o‘smir yoshdagilar o‘rtasida urf bo‘lib bormoqda) ko‘rishib salomlashish shular jumlasidandir. Biroq, doimo «Kim birinchi bo‘lib salomlashishi kerak?», «Qo‘l berib so‘rashish qoidalari qanday?», «Salomlashganda qanday murojaat qilinadi?», «Suhbatlashish qanday qoidalariga asoslanadi?» degan savollar ko‘pchilikni qiziqtirishi shubhasiz. Quyida ushbu masalalarga tegishli ayrim qoidalarni bayon etamiz:

Murojaat qilish odobi.

¹⁰ Каранг: Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Тарихий роман. Бирини китоб. Жаҳонгир Мирзо. Т. «Шарк» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2003. 336 б. 174-177 бетлар.

Murojaat insondan axloqiy, estetik, madaniy me'yorlarni belgilangan qoidalar asosida amalga oshirishni talab qiladi. Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan munosabat turi bo'lib, ular og'zaki yoki yozma ko'rinishga ega. Murojaat insonning qanday tarbiya ko'rganligini, o'zgalarga nisbatan hurmatini, did-farosatini, izzat-nafsini bilish mumkin bo'lgan axloqiy hatti-harakatlar majmuasidir. Murojaat qilib aytilayotgan so'zlar nafaqat hurmat belgisi, balki, maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq, barcha murojaatlar axloq me'yorlariga bo'ysingandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Murojaat qilish bir necha turlarga bo'linadi. Ularni asosan rasmiy murojaat va norasmiy murojaatlarga ajratish mumkin.

Rasmiy murojaatlar asosan qat'iy tartib va belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Rasmiy murojaatlar mehnat jamoasida rahbarga, ishlab chiqarish korxonalarida yetakchi mutaxassisga, ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchi ustozga, harbiy va huquq tartibot organlarida unvoni katta zobitlarga, davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda jinsga qarab yoki barchaga rasmiy murojaat qilinadi. Masalan, «Honimlar va janoblar», «Muhtaram elchi janobi oliylari», «O'rtoq boshliq yoki o'rtoq komandir», «Janobi direktor», «Ustoz Muzaffar Ahmedovich» va hokazo.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, rasmiy murojaatlarda faqat sizlab murojaat etish maqsadga muvofiq. Chunki, «sen» degan murojaat oradagi munosabatlarning samarali natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odatda zamonaviy muomala madaniyatida 9 yoshdan yuridagilarga nisbatan «siz» deb murojaat qilish maqsadga muvofiq sanaladi. «Sen» deb murojaat etish esa faqat oilada, yaqin qorindoshlar, do'stlar orasida aytilishi o'rinlidir.

Norasmiy murojaatlar rasmiy murojaatlarga nisbatan kengroq va doimiy ravishda qo'llaniladi. Norasmiy murojaatlar asosan kundalik hayotda, o'zaro muloqotda ishlatiladi. Murojaatning bu turini umumiy ma'noda yaqin insonlarga qilinadigan murojaatlar, intim murojaatlar hamda nomsiz murojaatlarga ajratish

mumkin. Xususan: *Yaqin kishilarga qilinadigan murojaatlarda* ishonchlik, do'stona va samimiy munosabat ustuvor ahamiyatga ega. "Hamkasaba", "Og'ayni", "Amaki", "Xola», "Kelinoyi", "Og'a" kabi murojaatlar bunga misoldir.

Intim murojaatlarda shaxsga nisbatan chiroyli, yoqimli, erkalash ma'nosidagi so'zlardan foydalangan xolda murojaat etiladi: "Azizim", "Mehribonim", "Jonim", "Begim" kabi so'zlardan o'rinda va samarali foydalanish zarur. Murojaatning bu turi insonning didli va farosatli ekanligini ham belgilaydi. Biroq, ushbu so'zlarni bemavrid ishlatish insonni bachkanalikka olib keladi. Ayniqsa, «jonim» so'zini barchaga nisbatan ishlatish aslo mumkin emas, bu so'z faqatgina nikohdan o'tgan, hayotini bir-biri bilan bog'lagan kimslarga nisbatan ishlatilsa maqsadga muvofiq.

Nomsiz murojaatlarda shaxsni kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo'lib, biror noma'lum obekt yoki subektni aniqlash, u haqda muayyan ma'lumot olish uchun qo'llaniladi. Masalan, "Kechirasiz, Nukus ko'chasini ko'rsatib yuborsangiz?" "Ma'zur tutasiz, sizning manzilingiz men boradigan joydan uzoqroqda ekan", "Xonadoshingiz siz haqingizda yaxshi fikrlar bildirdi» singari murojaatlarda shaxsning aniq ismi ko'rsatilmasada, u haqdagi ma'lumotlar va aytiladigan fikrlar tushunarli bo'ladi.

Suhbatlash odobi.

Suhbatlashish muomala madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Har qanday suhbat avvalo ma'lumotlar almanishuvidir. Suhbatlashish orqali insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, bir-birlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, bir-birlarini tushunib boradilar, shu bilan birga muomala madaniyatlaridagi ayrim bo'shliqlarni to'ldiradilar. Zero shoir Chustiy ta'biri bilan aytganda:

*Orttirur mehringni hardam mehribonlar suhbatlari,
Jonga jon baxsh aylagandek, jonajonlar suhbatlari.
Sira oson bo'lmagan mushkul tugunlarni yechar,
Fikri qilin qirq yoruvchi nuktadonlar suhbatlari¹¹.*

¹¹ Чустий. Кўнги́л тилаги. Чуст матлубот жамияти уюшмаси. 1994. 37-бет.

Suhbatlashish odobida quyidagilarga e'tiborga qaratish maqsadga muvofiq:

-Suhbatlashayotgan kishilarning gapini bo'lmashlik lozim. Agar zarurati bo'lsa albatta uzr so'rab murojaat etish kishining madaniyatli ekanligini bildiradi.

-Suhbat mavzui haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmay turib suhbatga aslo aralashmang, zero, oqibatda bemavrid fikringiz uchun uyalib qolishingiz ehtimoli mavjud.

-Suhbatlashayotganlarga qarata luqma tashlamang. Bu o'rinsiz qilg'ingiz suhbatlashayotganlardan birini ranjitishi mumkin.

-Suhbatdoshga og'ir botadigan, uni xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo'yadigan hamda suhbatdoshingiz xohlamaydigan mavzu bo'yicha suhbat hurmang. Bu borada zehni va farosatli bo'lish kishi uchun doimo muvoffaqiyat olib kelgan.

- Suhbatdoshingizni haddan ziyod maqtab yubormang. O'rinsiz maqtovdostona munosabatga putur yetkazadi. Shuningdek, suhbatlashayotganda "men"ingizni markaziy markaziy o'ringa qo'ymang. Chunki bunday suhbatlar aksariyat xollarda zerikarli bo'ladi.

-Suhbatdoshingizning kimligi, mavqei, qiziqishi, ijtimoiy kelib chiqishi va hokazo shu singari xususiyatlarini avvaldan bilishga harakat qiling. Shunda u bilan bo'ladigan suhbatingiz mazmunliroq bo'ladi.

-Suhbatdoshingizni hurmat qilishga o'rganing, hatto uni fikrini siz noto'g'ri deb bilganingizda ham oxirigicha eshiting.

- Tanimagan yoki endi tanishgan odamlar bilan suhbatlashishdagi asosiy mavzular albatta sport yoki seriallar bo'ladi. Biroq, bunday suhbatlarda oilaviy masalalar, shaxsiy hayotdagi kelishmovchiliklar, ish joyidagi muammolar haqida suhbatlashish o'rinsizdir. Shuningdek, suhbatlashayotganlar uch va undan ortiq kishini tashkil qilsada, ikki tanish odam bir-biri bilan o'zlari bilgan mavzuda suhbatlashishlari boshqalarga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi.

-Suhbatga qo'shilishni istasangiz albatta suhbat mavzusini, suhbatlashayotganlarning kayfiyatini hisobga oling. Yaxshi kayfiyatda suhbatlashayotganlarga qo'rqinchli, vahimali, ko'ngilsiz xolatlar haqida

gapirmang. Ayniqsa, bemor bilan suhbatlashganda juda ehtiyotkor bo'ling, bemorning ko'nglini yaxshi, muloyim hamda kasalligidan biroz bo'lsada chalg'ituvchi so'zlarni topib gapirish maqsadga muvofiq.

-Suhbatlashishning asosi faqat gapirishdan iborat emas, balki tinglash hamdir. Ammo, tinglash faqat eshitib o'tirishi degani ham emas. Yaxshi suhbatdosh suhbatdoshining fikrini tinglaydi, gapining mag'zini chaqishga harakat qiladi., fikrlaridan mantiqiy xulosalar chiqaradi., qo'shilmagan taqdirda "Darhaqiqat, manabu fikringizda jon bor, biroq avvalgi gapingiz biroz mubolag'ali» yoki "Kechirasiz, menimcha shu fikringizni boshqacharoq ifoda etganingizda yanada tushunarliroq bo'lar edi», yoki "Fikringizni bo'lganligim uchun uzr, lekin men buni boshqacha tasavvur qilaman» va hokazo. Zinhor "Bo'lishi mumkin emas", "Gapingiz mutlaqo noto'g'ri", "Bu haqda hech narsani bilmaysiz", "Siz aytayotgan gaplarni yosh bola ham biladi" degan iboralarni ishlatmangki, bu suhbatdoshingizning izzati, nafsoniyatiga tegadi.

Suhbat paytida hadeb soatga qarash, yon-atrofga alanglash, boshqa birovga pichirlab gapirish hurmatsizlik va madaniyatsizlik belgisi sanaladi. Bu xolat suhbat olib borayotgan kishiga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada suhbat samarasiz yakunlanadi.

Bugungi voqelik olamning ko'p ishlari va haqiqatlariga yangicha qarash, ularni butun murakkabliklarini yangicha idrok qilish va yangicha siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy me'zonlarda baxolashni talab etadi.

Milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, o'zligimizni anglay boshlaganimiz tufayli bugun har birimizning ongimiz, tafakkur tarizimizda muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Hayotiy o'zgarishlar odamlarimiz qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka ishonch tuyg'usini, Vatanga muhabbat, erkinlik xissini tarbiyalamoqda. Mazkur jarayonlar so'zlashuv madaniyatini takomillashtirishda, uni yanada guzallashtirishda har bir kishining mas'uliyatini talab etadi.

Nazorat savollari:

1. Ziyoli kishining axloqiy-estetik madaniyati, etiketi, imidji.

2. Zamonaviy axloqiy qoidalar va me'yorlar.
3. Amaliy etika masalalari.
4. Pedagog faoliyatida nutq madaniyati va notiqlik san'atining zaruriyati.
5. Kasb etikasi.
6. Axloqiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
7. Estetik munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

3–Mavzu: Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.

Reja:

1. Etiket tushunchasi, mazmuni va mohiyati
2. Etiket – amaliy axloq sifatida.
3. Etiketni shakllantirishning usul va vositalari
4. Kasbiy etiketni shakllantirish– taraqqiyotni ta'minlash omili sifatida

Tayanch iboralar: Kompyuter texnologiyalari, etika, axloqiy muxit, Axloqiy tarbiya, san'at, musiqa, kino, teatr, ommaviy madaniyat, xeppi, komiks, starizm, internet, kitch, emo, gotika, seriallar, adabiyot, musiqa, reklama. global muammo, biologik axloq, bioetika, paternalizm, abort, o'lim jazosi, ksenotransplantatsiya, transplontatsiya, ksenotransplantat, evtonaziya, klonlashtirish.

Axloqiy muhit. Amaliy etikaning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda,

qarang, ertalabdan kechgacha biz o‘z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko‘rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo‘lsak, necha kunlab yo‘l bosishimiz kerakligi haqida o‘ylab o‘tirmaymiz, to‘g‘rirog‘i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta’siri ostida biosfera yangi holat bo‘lmish noosferaga o‘tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishganini ta’kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o‘zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig‘ini, uning barcha tabiiy suvlarini o‘zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion o‘zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».¹²

Ana shu nuqtadan tafakkur o‘zi nima degan muammo paydo bo‘ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o‘zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan yechilishi topgan emas»¹³.

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o‘sha–o‘sha, hol etilmagan.

Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotga ta’siri haqida gap ketganda, uning kuchi jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqishida,

¹² Вернадский В.И. Начало и вечность жизни Москва. Сов. Россия, 1989. С. 186 – 187.

¹³ Ўша манба; С.185.

mavjud muammolarga jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilishida, davlat organlari faoliyatini nazorat qilib borishida ko'rinadi. Shu ma'noda u xalqni hokimiyat bilan bog'lovchi vosita-mexanizm hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy texnik uskunalar, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo'lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda: ommaviy axborot vositalarining huquqiy poydevori barpo etildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, qonunga muvofiq ish yuritishi, senzuraga yo'l qo'ymasligi (67-modda) alohida belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, mamlakatimizda xususiy ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga ham keng sharoit yaratilib, dunyoning turli mamlakatlardan mustaqil ravishda axborotlar olish imkoniyati yuzaga keldi.

1996 yilning may oyidan boshlab respublikamizda jahondagi yirik kompyuter tizimi «Internet» bilan aloqa o'rnatib, undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olishning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo'ldi. «Internet»ning 50 million abonentlari bo'lib, jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a'zo bo'lishgan. U butun dunyo bo'yicha turli sohalardagi yangiliklar qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o'z abonentlariga tez va aniq yetkazib beradi. 1996 yil 7 mayda esa «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televidenie va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» farmon qabul qilindi. Unda O'zbekiston Davlat televidenie va radioeshittirish Qo'mitasi O'zteleradiokompaniyaga aylantirildi. Bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot vositalari (OAV) mustaqillikni mustahkamlash, xalqqa tezkor va ob'ektiv xarakterdagi axborotlarni yetkazib berish minbariga aylandi.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqloq mafkurasini xalqimiz, avvalo yosh avlod ongiga singdirishda alohida o'rin tutadi. Ular ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. «To'rtinchi hokimiyat» hisoblangan OAVlari turli xil fikrlar, rang-

barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

Yirik siyosatchi, Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: «Ommaviy axborot vositalari - terrorchilar uchun kislorod vazifasini o‘taydi», - degan edi. Bu gapning mag‘zini chaqqan odam «ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan», degan xulosaga keladi. Zero, ularning maqsadlari - o‘ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta’sir qilishdir. Taassufki, ba’zi ommaviy axborot vositalari o‘zlari bilmagan holda terrorizmning buzg‘unchilik, ko‘poruvchilik ta’sirini yanada oshirishga «xizmat» qilib qo‘yadilar. Ularning terror oqibatlarini haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo‘rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi bugungi kunda targ‘ibotni kuchaytirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Globallashuv jarayonining barcha ijobiy va muqarrar fazilatlarini e’tirof etgan holda farzandlarimiz tarbiyasiga yanada hushyor bo‘lishimiz taqozo etiladi. Azaliy milliy qadriyatlarimiz, axloqiy qadriyatlar, sof o‘zbekona axloqiy fazilatlarini globallashuv to‘fonida yo‘qolib ketmasligi uchun matbuot mas’ul desak xato qilmaymiz. Axloqiy tarbiya jarayonida har bir vositadan oqilona foylanishi lozim. Televidenie esa tomoshabin bilan jonli muloqot, voqelikni axloqiy-estetik jihatdan keng qamrab olishi, barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko‘rsatish imkoni bilan boshqa ommaviy axborot vositalarga nisbatan keng imkoniyatlarga egadir. Bugun OAV juda qudratli kuchga aylandi. Barkamol avlodni tarabiyalashda ayniqsa vatanparvarlik ruhidagi ko‘rsatuvlarning o‘rni muhim. Shu jihatdan olganda “Vatanparvar”, “Shijoat” kabi ko‘rsatuvlarni alohida ta’kidlash lozim. Ayniqsa televideniya ushbu mavzuga bag‘ishlangan bir qancha mazmunli reklama roliklarining paydo bo‘lganini ham ijobiy hodisa deyish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari xususan televidenie voqelikni bir butun qamrab oladi. Axloqning barcha soha va yo‘nalishlari axloqiy madaniyat, tabiatga axloqiy munosabat, etiket, axloqiy tarbiya muammolariga keng to‘xtalib o‘tadi. O‘zaro

insoniy munosabat va insonda o‘simliklarga, hayvonlarga, yeru suvga muhabbat hissini tarbiyalash hozir ko‘proq axloqiy munosabat bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Tabiatdagi nafosatni anglash, insondan avvalgi qo‘pol munosabatning o‘zgarishiga ham axloqiy-estetik, ham ekologik madaniyatning yuksalishiga olib keladi.

Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Birinchi Prezident I.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi”¹⁴. Shunday bo‘lsa-da, internet bir qator salbiy jihatlarni keltirib chiqarayotganini ham doimo yodda tutish lozim. Unda o‘z-o‘zini o‘ldirishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytning mavjudligi ham buning isboti bo‘la oladi. Mutaxassislar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini, 42 foiz bolalar va o‘smirlar onlayn pornografiya ta’siriga tushishini qayd etishmoqda. Mavjud maxsus dasturlar internetdagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya’ni kompyuterdan foydalanuvchining ixtiyorida tashqarida ekranda paydo bo‘lishi yo‘liga to‘siq qo‘ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografik mazmunga ega saytlar internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat’i nazar, ularning ixtiyorini torta oladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish uchun asos bo‘ladigan “axborot iste’moli madaniyati”ni¹⁵ tarbiyalash hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularda bunday madaniyatning kamol toptirilishi milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan har qanday hodisaga selektiv yondashish ko‘nikmasi shakllanishiga va dunyoqarashdagi sog‘lom barqarorlikka zamin

¹⁴ Ислом Каримов. Юсак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент, “Маънавият”, 2008.-114 б.

¹⁵ Ушбу тушунча илмий муомалага У.Кўшаев томонидан киритилган.

yaratadi.

Hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yoʻnalishlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida Bioetika etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham boʻlgan munosabatlarning axloqiy regulyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini maʼnaviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik Bioetika etikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, sotsial masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri –shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini oʻzgartirish mumkin boʻlgan, uning ustidan oʻtkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez oʻzgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyusion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak boʻlsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin boʻldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini koʻtarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta oʻqish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday maʼnaviy mezonlarga koʻra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot obʻekti boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur hodisa soʻnggi bir necha oʻn yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan aʼzosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yoʻli bilan oʻtkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida

dolzarb bo‘lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to‘g‘ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo‘nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo‘lgan munosabatlari bilan bog‘liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o‘z-o‘ziga va o‘zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog‘liq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya‘ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o‘z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda. Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhroilarning ba‘zi ko‘rinishlariga to‘xtalib o‘tdik. Biroq, yana undan tashqari so‘nggi paytlarda jahon bo‘ylab sintetik jismlar ishlab chiqarishning keng yo‘lga qo‘yilganligi, hayvonot va ayniqsa o‘simliklarning gabrid usulida yangi turlarining vujudga keltirilishi singari hadislar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo‘sh, ular tabiat bilan silngishib, uyg‘unlashib keta oladimi, tabiat ularni o‘ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlari, yuqorida aytib o‘tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo‘lar?

Globalashuv sur‘atlari ortayotgan, xalqaro raqobat kuchayayotgan, axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir paytda shaxs axloqiga salbiy ta‘sirining asosiy yo‘nalishlarini belgilash «begonalashuv» tushunchasining mazmuniga aniqlik kiritishni taqozo etadi, albatta. Taassufki, bu borada xanuzga qadar bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, ushbu tushunchaning mazmuni zamonlarga mutanosib tarzda, kishilik jamiyatida to‘plangan ijtimoiy-gumanitar bilimlar hajmiga mos ravishda, mazkur muammolar xususida bosh qotirgan mutafakkir va mutaxassislarning dunyoqarashlariga uyg‘un

holda o'zgarib, boyib va to'lishib bordi.

Begonalashuv to'g'risidagi ilk qarashlar, yondashuvlar eng qadimgi davr faylasuflari bo'lmish Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokritning inson va jamiyat to'g'risidagi fikrlarida uchratish mumkin. Xususan, Aflotun ta'limotiga ko'ra, kishilik jamiyatining va davlat tuzumiing buzilishiga sabab, moddiy manfaatdorlikning xukmronlik qilishi va uning kishilar axloqiga ta'sir etishidir, yana bir yunon mutafakkiri Arastu qarashlarida bu muammoga yondashuv o'ziga xosdir. Arastu antik jamiyatning nazaryotchisi bo'lganligi uchun boylikka ehtiyoj nuqtai nazaridan qaraydi. Boy bo'lish uchun boylikka ega bo'lish emas, balki undan foydalanish demakdir. Haqiqiy farovon hayot uchun cheksiz boylik zarur emas. To'plangan boylik ma'lum maqsadga xizmat qilsa, buning oqibatida davlatga va oilaga foydali, inson hayotiga zarur narsalarni to'plashni nazarda tutadi. Begonalashuv tushunchasining atama sifatida vujudga kelishi, XVII-XVIII asrlarda "ijtimoiy shartnoma" tarafdorlari Tomas Gobbs, Jon Lokk, Per Gassendi, Jan Jak Russo va boshqalar atroflicha o'rganishdi.

Begonalashish sababi shaxsning ruhiy holatiga bog'liq deb hisobladi. Feyerbaxning begonalashuv konsepsiyasi asosida begonalashuv jarayonida din paydo bo'lishi va insonning o'zidan begonalashuvi bo'ladi. Fayerbax tasdiqlashicha begonalashuvni yengish uchun inson o'zi va xudo o'rtasidagi haqiqiy munosabatni bilishi kerak va Xudo tabiatdan a'lo bo'lib boshqacha emas, aynan inson jismi kabi bo'ladi deb hisoblagan. Zamonaviy g'arb falsafasi tarixida «Yevropaning tanazzuli» asarining muallifi sifatida paydo bo'ldi. Nemis faylasufi «G'arbning halokati» to'g'risidagi asarida mazkur jarayonning haqiqatda ehtimoli borligini keltirib o'tdi. Shpengler butun tarixiy jarayondan kelib chiqqan holda fikr bildirgan bo'lib, u bosh maqsad sifatida burjuaziya jamiyati g'oyasiga ishonishni qo'ydi. Barcha paydo bo'luvchi taqdiralar oldindan ma'lum bo'ladi va bu taqdir faqatgina bizning davrga xos bo'lmasdan, butun tarixiy zamonlarga tegishli bo'lgan.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining ma'naviy-madaniy inqiroziga bag'ishlangan konsepsiyalar ko'paymoqda. Eng qizig'i, XX asr davomida

insoniyat sivilizatsiyasining inqirozga yuz tutayotgani asosan uchta e'tiborli konsepsiyada e'tirof etilgan bo'lsa,² XX asrning oxirgi 10-15 yili va XXI asrning boshida shu fikrni yoqlovchi ko'plab asarlar e'lon kilindi.³

Xo'sh, ilmiy tadqiqotlarini turli ilmiy, mafkuraviy pozitsiyalardan amalga oshirgan, dunyoqarashi ham turlicha bo'lgan bu olimlarning bir-biriga yaqin bo'lgan bunday xulosalarga kelishlariga sabab nima?

Bugungi kunda kishilik sivilizatsiyasini titratgan muammolar haqiqatan ham bag'oyat jiddiy xarakterga ega. Bu muammolarni XX asrning keyingi 30 yili davomida kishilik sivilizatsiyasida sodir bo'lgan asosiy o'zgarishlarga mutanosib ravishda beshga bo'lish mumkin.

Bizning davrimizga kelib, G'arb olami butun dunyo bo'ylab informatsion texnologiyalarni tarqatar, bu texnologiyalarni zamonaviy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismiga aylantirar ekan, shu mahsulot turlarining narxlarini ham belgilashga muvaffaq bo'lyapti. Buning oqibatida esa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut yanada kattalashib bormoqda.

Inson begonalashuvi omillari orasida ma'naviy tahdid o'zining murakkabligi, nihoyatda nozikligi bilan ajralib turadi. Chunki, u shaxsning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga, uni o'zga, turmush tarzi, qadriyatlar sistemasi va g'oyalar dunyosiga bo'ysundirishga, erkinligini cheklashga qaratilgan bo'ladi.

Shaxslararo muloqot tizimi bu holatda umuman olganda zaiflashadi va o'zining faoliyatini to'xtatadi. Egoist yolg'izlik va ichki ziddiyatlar holatiga tushib qoladi. Bunda jamiyat individualistik xarakter kasb etadi va yemirilish sari yaqinlashadi.

Altruistik xulq-atvor holatida odam o'z energiyasining bir qismini boshqa odamlarga beradi, shu bilan birgalikda undan minnatdor bo'lgan boshqa odamlar ham unga xuddi shu tariqa javob qaytaradilar. Odam tomonidan sarflangan energiya boshqa odamlarning energiyasi hisobiga to'ldiriladi. Natijada shaxslararo muloqot tizimi mustahkamlanadi va rivojlanadi. Minuslar plyuslarga aylanadi. O'zaro harakatlar va takomillashishning yuqori potensialiga ega bo'lgan kollektivistik tip tizimi shakllanadi. Bularning barchasi shuning uchun ham sodir

bo'ladiki, egoist-odam va altruist-odam faol tizimlar bo'lib hisoblanish bilan tizimli bog'lanishlarning tipi bo'yicha prinsipial farq qiladi. Begonalashish muammosini odamning ma'naviy-axloqiy xarakteristikalarini bilan bog'lanishda ko'rib chiqishning yana bir qonuniyatini ko'rsatamiz. Altruist va egoist shaxsining o'zining mohiyati bo'yicha ikkita qutbda joylashadigan fazilatlari bir qator o'tuvchi xarakteristikalar orqali asta-sekin vujudga kelishini ko'rsatamiz.

Bunda qarama-qarshi boshlanishlarning metafizik ajratilganligi emas, balki ular o'rtasidagi dialektik o'zaro o'tishlar o'z o'rniga ega bo'ladi. Bu fikrni bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan yaxshilik va yomonlik fazilatlari misolida ko'rib chiqamiz. Birinchisi – ijobiy fazilat bo'lib, ikkinchisi – unga qarama-qarshi bo'lgan salbiy fazilatdir. Biroq ularning orasida dialektik o'tish mavjud, uni befarqlik deb atash mumkin. Yaxshilikka qarab borishda shaxslarning o'tuvchi ma'naviy his tuyg'ulari – qiziquvchanlik, muloqotga kirishishning boshlanishi, bir-biriga yoqish istagi va so'ngra bir-biriga yaxshilik qilish istagi kabi ijobiy o'zaro harakatlari kuchayib boradi. Befarqlikdan yomonlikka qarab borishda ham bir qator ma'naviy his-tuyg'ular – biroq endi boshqa – salbiy xarakterdagi his-tuyg'ular rivojlanadi. Bu yoqtirmaslik, qizg'anish, achinmaslik, bir biriga yomonlik keltirish istagi va oxir-oqibatda bir-biriga yomonlik qilishdir.

Boshqa ma'naviy-axloqiy xarakteristikalar – adolat va adolatsizlik, haqiqat va yolg'on va hokazolar o'rtasidagi dialektik o'tishlarni ham xuddi shu tarzda kuzatish mumkin. Barcha hollarda tizimli-falsafiy yondashuv pozitsiyasidan altruizm qutbi tizimli bog'lanishlarning mustahkamligini, egoizm qutbi esa – bog'lanishlarning keskin zaiflashuvi va uzilishini, o'tish holati esa odamlarning ma'naviy-axloqiy o'zaro harakatlarining beqarorligi bilan taqdim qilinishini ifodalaydi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, insonning psixikasi va shaxslararo munosabatlar juda dinamik tizimli va tizim-muhit bog'lanishlari va munosabatlarini o'zida taqdim qiladi. Shaxsning qutbiy ma'naviy tiplarini absolyutlashtirmaslik lozim.

Shaxsning altruistik xulq-atvori, aksincha, mutlaqo qonuniyatli tarzda begonalashgan munosabatlarning yo'qolishiga, hamjihatlik va kollektivizmning

mustahkamlanishiga, jamiyat potensialining o'sishiga olib keladi. Odamlar o'rtasidagi yuqorida ko'rsatib o'tilgan munosabatlar dinamikdir, buning oqibatida hatto begonalashishning murakkab vaziyatlarida ham hayotning ijobiy asoslarini shakllantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo'ladi. O'ylashimizcha, yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlar begonalashishning antropoijtimoiy muammosida inson omilini tushunishning asosini tashkil qiladi.

Ma'naviy va axloqiy fazilatlar, shuningdek jamiyatda odamlarning o'zaro munosabatlari odamning ma'naviy olamining rivojlanish darajasini uning odamlar va olamga qaratilgan ma'naviy his-tuyg'ularining boyligi orqali xarakterlaydi. Bu his-tuyg'ularning zaiflashuvi yoki bo'lmasligi, aksincha, shaxslararo munosabatlarning yo'qolishiga, ijtimoiy munosabatlarning zaiflashuvi va yemirilishiga, odamning olamdan begonalashuviga olib keladi. Odamning ma'naviy va ma'naviyatga zid bo'lgan begonalashgan mavjud bo'lishining bu jarayonlari badiiy asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jihatdan rus madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi, u odamning ma'naviy kechikmalari va ezilishlarini, uning ichki olamining tashqi olam bilan munosabatlardagi rolini to'laligicha aks ettiradi.

Nazorat savollari:

1. Mustaqillik sharoitida etika fanining ahamiyati.
2. Ilmiy texnik taraqqiyot natijasida yuzaga keladigan axloqiy va estetik muammolar.
3. Internetning axloqiy-estetik tafakkurni o'zgarishiga ta'siri xaqidagi fikringiz.
4. Tibbiyot estetikasi va bioetika xaqida nimalarni bilasiz?
5. Begonalashuv va uning axloqiy muammolari xaqidagi fikringiz.

4-Mavzu: Estetik anglash.

Reja:

1. Estetik bilish, anglash va ishlab chiqarish jarayoni
2. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.
3. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko'rinishlari.

4. Yosh avlodni estetik tafakkurini shakllantirishning dolzarb muammolari

Tayanch iboralar: San'at va nosan'at ob'ektlar, san'atning turlari, sirk, teatr, raqs, qo'shiqchilik, rassomchilik, kitobot, kino, foto, internet, haykaltaroshlik, televidenie, san'atlari. san'atning global muammolari, shaxs axloqiy madaniyati, estetik did, San'at, epos, lirika, drama, arxaik san'at, an'naviy san'at, zamonaviy san'at, huzurbaxshlik, ma'naviyat tizimi, janr. Idrok, badiiy idrok, estetik idrok, hissiy idrok, aqliy idrok, niyat, g'oyaviy niyat, tasavvur, badiiy tasavvur, ilhom, ilhom manbai.

San'at va axloqning bosh mavzui inson hisoblanadi. San'at insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi. Hayotda axloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi.

Axloq va axloqiyliksiz yuksak badiiy asar mavjud bo'lmaydi. Barcha san'at asarlari uchun axloqiylik muhim asos hisoblanadi. Ayni paytda san'at axloqiylikning targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiyani mustahkamlashda san'at eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. San'at asarlarining tarbiyaviy kuchi shundaki, unda aks ettirilgan qahramonning qiyofasi o'quvchida hayajon, zavq va quvonch uyg'otadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini o'qiganimizda Otabekdagi mardlik, jasurlik, sevgiga vafodorlik, ota-onaga hurmat, yurtga sadoqat kabi fazilatlarni, Kumushbibidagi iffatlilik, shirinmuomalalik, quvnoqlik, andishalilik, zukkolik, singari insoniy sifatlarni

inson kamoli uchun ko‘rk berib turishini xis etamiz. Shu orqali badiiy adabiyot insonning qalbiga, uning ruhiyatiga, irodasiga ta’sir qilib, uni tarbiyalaydi, o‘zligini chuqur anglab olishiga imkon yaratadi

Asarni estetik idrok etish.

IDROK: predmet va hodisalarning yaxlit qiyofasini aks ettirib, u voqelikni inson sezgi a’zolarining ta’siri orqali belgilovchilik va boshqaruvchilik imkoniyatlarini namoyon qiladi.

BADIIY IDROK: ijod jarayonlarida namoyon bo‘lib boradi. Agar ijod jarayoni to‘xtasa, badiiy idrok ham to‘xtaydi. U ijod jarayonining baxolash mezonini va bu jarayonga ko‘mak beruvchidir.

ESTETIK IDROK : badiiy ijod nazariyasini to‘laqonli anglash va san’atning ijtimoiy tabiatini ochish imkonini beradi. Estetik idrok jarayonlarida estetik masofa omilining sezilarli o‘rni mavjud. M.: teatrda tomoshabin bir paytning o‘zida ham sahna bezaklariga, ham aktyorlarning kiyimlariga, ularning hatti-harakatlariga sinchkovlik bilan nazar tashlaydi.

KINO: Hozirgi paytda yoshlarning kalbi va ongini egallashga karatilgan jiddiy xatarlardan biri “ommaviy madaniyat” nomi bilan industrial asosda ishlab chiqilayotgan “san’at” namunalaridir. Bugungi globallashuv jarayonida barcha davlatlarda odam savdosi, diniy aqidaparastlik, terrorizm kabi illatlar ko‘payib bormoqda. Barcha davlatlarda bunga qarshi kurash yo‘llari xar – hil bo‘lib, bu o‘rinda kino san’ati ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Tomoshabinlarni o‘ziga jalb qila olgan “Aldangan ayol”, “Tubanlik” filmlari bunga javob bo‘la oladi. Huddi shunday “Arosat” filmi ham insonni o‘ylashga chaqiradigan filmlar sarasiga kiradi.

INTERNET: Turli sektalar, noqonuniy diniy uyushmalar yoshlarni ekstremizm, terrorizm, missionerlikka moyil, jinoyat qilishdan qaytmaydigan, giyohvandlikka oson beriluvchan qilib tarbiyalashga urinmoqda.

TATUIROVKA – teri ostiga rang yuborib, turli xil shakl va naqshlar chizish. Tatuировka qildirish avvallari mahbuslarga xos odat edi. Aslida u turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishi “ommaviy madaniyat”ni tarqatuvchilarga oydek

ravshan. Badanga turli xil shakllarni chizish va chizdirish amallari milliy o'zligimiz va urf-odatlarimizga zid. Na o'zligimizga va na dinimizga to'g'ri keladigan, iymonimiz, jismimizga zarar keltiruvchi bunday amaldan biz o'zimizni va boshqalarni asramog'imiz lozim.

POSTMODERNIZM: Postmodernizm modernizmdan keyingi degan manoni bildiradi. Bunda san'atkorlar odatda ommaviy janrlarga. Masalan. detektiv, komediya, melodrammalarga murojaat qilish, ular vositasida ommani qiziqtirgan. ularning diqqat-e'tibor ini tortgan syujet-mazmundan foydalanishga harakat qiladilar. Ayniqsa bu o'rinda ekran, kino, teatr imkoniyatlaridan kengroq foydalanish alohida o'rin tutadi. Postmodern san'atiga oid asarlarda asosiy e'tibor bevosita san'atning o'ziga qaratiladi. Xususan san'atda inson o'z erkinligi, o'z ijodiy betakrorligi, o'z ma'naviyatini to'la ma'noda namoyon eta oladigan bo'lishi kerak. Shu ma'noda san'at nafaqat o'z ijodkornigina emas, balki shu bilan birga san'atning barcha muxlislarini ham ulug'laydi. Postmodernizm tarafdorlarining fikricha, san'at o'ziga qaytadi. Shu ma'noda san'atning maftunkor qudrati va uning hayotbaxsh tasviri o'zini to'la namoyon etib, odamlarga quvonch va shodlik bahsh eta oladi.

Estetik ideal o'ziga mos go'zallik, ulug'vorlikni yoki mo'jizaviylikni ko'proq san'atdan topadi. Shu tufayli u doimo erkinlikni talab qiladi. Avvalo san'at asari orqali san'atkor voqelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib tasvirlaydi, boshqacharoq aytganda, o'z ideallarini san'at vositasida moddiylashtiradi: binoga, haykalga, romanga, spektaklga, rasmga, badiiy asarga va boshqa ma'naviy hodisalarga aylantiradi: san'atkor erkin harakat qiladi. Biz esa o'z ideallarimizni ulardagi obrazlar orqali tanlaymiz, ularni o'zimiz uchun ma'lum muddatga yoki bir umrga namuna qilib belgilaymiz, bu holatdagi xatti-harakatimiz ham erkinlik orqali ro'y beradi. Ya'ni, san'at har bir insonni individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda, uning o'z estetik idealini obrazlar vositasida shakllantiradi.

AVANGARDIZM: avangardizm XX asr badiiy madaniyatidagi yo'nalish. U mavjud me'yori va an'analarni rad etib, yangi ifodaviy vositalarni yangilik deb qarashdan nariga o'tmaydi.

KUBIZM: Kubizm-XX asr boshlarida vujudga kelgan borliqni tasvirlashning yangicha uslubi.

ABSTRAKSIONIZM: Abstraksionizm — lotin tilidan olingan bo‘lib, "mavhum" "noaniq" degan ma’noni anglatadi.

CYURREALIZM: Cyurrealizm- hayol va haqiqat orasida bo‘lgan ziddiyat va qarama qarshilikka chek qo‘yish.

POP ART -turli reklama, sanoatda ishlab chiqarilgan buyumlar ularning obrazli dunyosini tashkil etdi.

ARTEFAKT- jamiyat ma’naviy hayotining fenomenlari biri.

4.2. San’atning axloqiy va estetik asoslari.

San’at – estetik faoliyatning o‘ziga xos turi, sehrli ma’naviy ko‘zgu. Sehri shundaki, san’at asarini idrok etayotgan odam unda ham shu asarni yaratgan inson dunyosini, ham o‘z dunyosini qadriyatlar prizmasi orqali ko‘radi; o‘zining qandayligini va qaerdaligini, yutuqlarini va nuqsonlarini, aqlini va hissiyotlarini aniqlashtirib oladi. Uning estetik mohiyati makon va zamondagi voqelik vositasida go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, kulgililik, xunuklik, tubanlik v.b. estetik xususiyatlarni in’ikos ettirishi hamda ularni baholashi bilan belgilanadi. San’at qadriyatlarning qadrlanishini va qadrsizlangan qadriyatlarni ko‘rsatib beradi, bir odam yoki bir necha odam timsolida odam bilan olamning yaxlit, umumlashgan qiyofasini yaratadi, ularning uyg‘unligini ta’minlaydi. U kishini yashashga o‘rgatadi, go‘zallikka da’vat etadi, ma’naviy yuksaltiradi. Shu sababli insoniyat tarixida san’atsiz yashab o‘tilgan birorta ham davr yo‘q.

San’atning xususiyatlari va tamoyillari

Ma’joziylik xususiyati. Boshqacha qilib aytganda, narsa-hodisalar yoki so‘z-iboralarining ko‘chma ma’nolarda, ko‘p ma’noli tarzda qo‘llanilishi san’atning san’atligini belgilab beradi. Majoziylik, keng ma’noda olganda, badiiy qiyofa yaratish, umumlashtirish, ramziylik, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, kinoya singari badiiy vosita va usullarni o‘z ichiga oladi.

Demokratik xususiyati. San’atning demokratik xususiyati ham uning yashash shartlaridan biri. Bu xususiyat eng avvalo erkinlik bilan bog‘liq. Ijodkor

fikr erkinligi, soʻz erkinligi, gʻoya erkinligi, mavzu erkinligi, uslub erkinligi, rang erkinligi v.b. ijodiy erkinliklar tizimiga ega boʻlsagina, ulardan oʻz oʻrnida foydalana olsagina, uning asarini sanʼat namunasi deb atash mumkin. Ijodkorga, siyosiy-mafkuraviy zoʻravonlik qilish, uni majburlash, qoʻrqitish orqali taʼsir koʻrsatish kabi hodisalar sanʼat uchun oʻlim demakdir.

Ijtimoiylik xususiyati. Ijtimoiylik ham sanʼatning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Har bir sanʼat asari oʻz davrning dolzarb muammolarini, yetakchi gʻoyalarini, muayyan mafkurani koʻtarib chiqmasligi mumkin emas. Faqat ular goʻzallik, ulugʻvorlik, kulgililik, ezgulik, ideal kabi estetik va axloqiy qadriyatlar bilan uygʻun tarzda idrok etuvchiga yetkazib beriladi.

Tarixiylik xususiyati. Har bir haqiqiy sanʼat asari, vaqt nuqtai nazaridan zamonaviy yoki tarixiyligidan qatʼi nazar, u – tarix, badiiylashtirilgan tarix. Masalan, Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asari X-XI asrlarda yaratilgan, milodgacha va miloddan keyingi dastlabki davrlardagi Eron ijtimoiy-siyosiy hayotidan olib yozilgan tarix, faqat badiiylashtirilgan, umumlashtirilgan tarix.

Milliy va umumbashariylik xususiyati. Bu oʻrinda biz, eʼtibor qilsangiz, milliylikni umumbashariylik bilan birga, ajralmagan holda keltiryapmiz. Gap shundaki, ularni boshqa barcha sohalarda alohida-alohida olib qarash mumkin. Faqat sanʼatda emas, sanʼatda ular dialektik yaxlitlikda namoyon boʻladi. Yaʼni haqiqiy milliy qadriyatga aylangan badiiy asargina asl umuminsoniylikni va aksincha, haqiqiy umumbashariy qadriyatga aylangan asargina tom maʼnodagi milliylikni oʻzida mujassam etadi.

Originallik (yangilik)-ijodiylik tamoyili. Har bir maʼnaviy hodisada boʻlganidek, sanʼatda ham uning asosini tashkil etadigan, tamal toshi vazifasini oʻtaydigan tamoyillar mavjud. Ulardan birinchisi - sanʼatning yangilik (originallik) yoxud ijodiylik tamoyili. Chunki ijod mahsuli, ijod qilishi – kashf etish, shu kungacha mavjud boʻlmagan narsani yaratish demakdir.

Haqqoniylik tamoyili. U sanʼat asarida inʼikos etayotgan inson xatti-harakatlarining, ilgʻor gʻoyalarning, badiiy usullarning, butun ifodaviy-tasviriy vositalarning bir-biri bilan uygʻun, maqsadga muvofiq tarzda berilishini

ta'minlaydi. Zero umumiylikni – xususiylikda aks ettirish, ma'kon, zamon va inson yaxlitligini badiiy qiyofalarga ko'chirish san'atkor uchun eng murakkab ish.

Xalqchillik tamoyili. San'at asari xalq uchun yaratiladi. Lekin xalq degani, bu – aholi emas, aholining fikrlaydigan, milliy qadriyatlarga befarq qaramaydigan, afkor, tinglay olish, tomosha qila bilish va o'qish qobiliyatiga ega qismi. Asardagi xalqchillik ana shu ko'pchilikning shodligu qayg'usini, dardlarini, intilishlarini, muammolarini qay darajada tushunarli tarzda ifodalay olishi bilan belgilanadi.

San'atning asosiy vazifalari

Biz imkon qadar tahlildan o'tkazgan san'atning xususiyatlari va tamoyillari ma'lum ma'noda uning asosiy vazifalarini ham belgilab beradi. Endi ana shu vazifalarni qisqacha ko'rib o'tishga harakat qilamiz.

Insoniylashtirish - san'atning dolzarb vazifasi. U san'atning deyarli barcha asosiy xususiyatlarini va o'ziga xosligini namoyon etadi. Zero, har bir san'at asari markazida inson turadi. Insoniylashtirish vazifasini san'at ham bevosita, ham bilvosita amalga oshiradi. Bevosita deganimizda, insonning badiiy qiyofalar shaklida in'ikos ettirilishini nazarda tutamiz. Ya'ni qahramonlarning shakli-shamoyili, fe'l-atvori va xatti-harakatlari asarda taqdim etilayotgan zamonaviy yoki tarixiy voqelikni insoniylashtiradi, ularda inson ishtirokini ta'minlaydi. Bilvosita insoniylashtirish esa, birinchidan, san'atkor vositasida ro'y beradi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri inson qiyofasi tasvirlanmagan esa-da, asar hujayrasiga singdirilgan inson ruhi uni ichdan nurlantirib, ranginlantirib turadi.

Forig'lantirish - san'atning asosiy vazifasi. Forig'lantirish nima ekanini, uni dastlab Arastu san'atga nisbatan qo'llaganini biz avvalgi boblar orqali yaxshi bilamiz. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, san'atning bu vazifasi muayyan badiiy asarni idrok etish mobaynida ro'y beradi. Uni shartli ravishda uch qismga ajratish mumkin. Dastavval haqiqiy san'at asari inson qalbini ochadi, kalit vazifasini o'taydi. Keyin uni tozalaydi – poklaydigan ma'naviy modda vazifasini o'taydi. Undan so'ng, uchinchi galda, ochilgan va barcha mayda, g'arazli, salbiy hislardan tozalangan qalbni yuksak tuyg'ular, ulug'vor intilishlar, buyuk orzular

bilan to'ldiradi, o'zingiz hali yaxshi ilg'ab yetmagan, ma'naviyatga bo'lgan ichki bir botiniy-ruhiy tashnalikni qondiradi.

Bilimli, ma'rifatli qilish - san'atning muhim vazifasi. Insonni bilimli, ma'rifatli qilish ham san'atning asosiy vazifalaridan. Uni, odatda ma'rifiy – evristik vazifa deb atashadi. Har qanday haqiqiy san'at asari insonga turli xil bilim beradi, uni birvarakay ko'p sohalar bo'yicha ma'rifatli qiladi. M., Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan» romanini o'qir ekansiz, siz dengiz haqida, kemalar, qayiqlar, yelkanlar, kit ovi, Afrika qit'asining o'ziga xosliklari u yerdagi qabilalarning odatlari, qul savdosi v.b. to'g'risida ma'lumot olasiz. Ya'ni bir asar orqali bir yo'la geografik, navigatsion, etnografik, tarixiy v.h. ilmlardan xabardor bo'lasiz. To'g'ri, bu bilimlaringiz mazkur fanlarni maxsus o'rganganlik – mutaxassislik darajasida bo'lmasa ham, lekin siz bundan buyon o'zingizga va mintaqangizga xos bo'lmagan ijtimoiy hodisalar to'g'risida yaxshigina ma'rifatli kishi hisoblanasiz. Agar bordi-yu Jyul Vernning asosiy asarlarining barchasini o'qib chiqsangiz, siz har qanday geograf olim bilan bahslashga olasiz. Umrida biror-bir mamlakatga sayohat qilmagan bu yozuvchining badiiy asarlari uning ko'pgina mamlakatlar geografiya jamiyatlari faxriy a'zosi etib saylanishiga, hatto o'zining ham geografiyadan ilmiy ishlar qilishiga sabab bo'ldi, ko'pdan-ko'p olimlarning ilmiy kashfiyotlariga turtki berdi.

Tarbiyaviylik - san'at uchun ustuvor vazifa. Tarbiyachi sifatida san'at inson hissiyotlariga ta'sir qiladi, estetik kechinmalar uyg'otadi va shu orqali bizda ezgulikdan yovuzlikni farqlay bilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu jarayon ikki yoqlama ta'sir tufayli ro'y beradi. Birinchisi – bevosita, ikkinchisi– bilvosita. Birinchisi – to'g'ridan-to'g'ri didaktik usul orqali amalga oshiriladigan tarbiya. Bunda san'at asarining o'zi, shakli va mazmuni bilan, butunisicha nasihat ruhidagi tarbiyaga qaratilgan bo'ladi. Misol tariqasida Shayx Sa'diyning «Guliston», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» pandnomalarini, Maxtumqulining she'rlarini, Ezopning masallarini keltirish mumkin. San'at tarbiyaviyligining ikkinchi, bilvosita tomoni real hayot tajribasi sifatida asardan idrok etuvchi o'ziga «yuqtirgan», ya'ni qalb prizmasidan o'tkazib, o'zi uchun zarur deb qabul qilgan

axloqiy-estetik qadriyatlar bilan bog'liq. Bunda san'at asari ijtimoiylashgan badiiyat, undagi qahramon g'oyaviy-badiiy yaxlitlik tarzida tarbiyaviy rol o'ynaydi.

Ijtimoiy aloqachilik (kommunikativlik) faoliyati - san'atning o'ziga xos vazifasi. Haqiqiy san'at asari idrok etuvchini muayyan makonda va zamonda «birga olib yuradi», biz uchun yangi bo'lgan voqelik bilan «tanishtiradi», hozirgi zamon odamini boshqa bir zamonga, boshqa tarixiy voqealar joyiga, boshqa mintaletetga, boshqa mintaqaga «olib boradi», M., Shekspirning «Romeo va Julietta» asari orqali O'rta asrlar Italiyasidagi voqealar bilan bog'lanamiz. Zamonaviy san'at asarida ham shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, san'at ijodkor va jamiyat, ijodkor va asar, asar va uni estetik idrok etuvchi orasidagi uch yoqlama aloqani ham amalga oshiradi.

Huzurbaxshlik - san'atning ijtimoiy vazifasi. Biz yuqorida san'atning kelib chiqishini o'yin bilan bog'lagan edik. Shunday ekan, huzurbaxshlik vazifasini uning tabiiy burchi deb atash mumkin. Chunki o'yin «bir maza qilish», bir muddat zavqqa berilib, huzur olish uchun kerak. San'atda ham, u ilk bor bunyodga kelgan paytidan boshlaboq, huzurbaxshlik asosiy vazifa hisoblangan. Biroq, taraqqiyot davomida insonning, qo'polroq bo'lsa ham, Arastu ta'biri bilan aytganda, «ijtimoiy hayvon»ligi ustuvorlik kasb etib borgani sayin, bu vazifaga juda ko'p hollarda yetarli e'tibor berilmaydi: g'oyaviylik, mafkuraviylik, zamonaviylik, dolzarblik kabi ijtimoiy «yuk»lar «san'at yelkasiga» me'yoridan ortiq yuklanadi. Natijada san'at bunday og'ir yuk ostida ezilib qoladi va huzurbaxshlik vazifasini kerakli darajada bajara olmaydi. Bundan na zamon, na mafkura, na g'oya, na san'atkor, na san'at asari foyda ko'radi. Chunki bularning hammasi asarni idrok etuvchiga xuzurbaxshlik orqali yetib boradi. Huzurbaxshlik yo'qolgan joyda san'atning o'zi yo'qoladi. U bir marta o'qiladigan, bir marta ko'riladigan, bir marta tinglanadigan, g'oyaviyligi bilan badiiyligi orasida Xitoy devori ko'tarilgan soxtalik namunasiga aylanadi. Zero, huzurbaxshlik vazifasi san'atning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlashi barobarida uni ajdoddan avlodga asrab yetkazishni ham o'z bo'yniga oladi.

Estetik idrok va badiiy idrok

Idrok mazmunan kengqamrovli tushuncha bo‘lib, mavjud barcha sohalarga dahldor sanaladi. U narsalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tafakkur orqali talqin etishda hamda turli xil munosabatlarni o‘rganishda insonga ko‘mak beradi. Shuningdek, idrok jarayonining to‘g‘ri shakllanishi aqliy taraqqiyotning asosiy omili hamdir. Bir so‘z bilan aytganda, *idrok* narsa–hodisalarning yaxlit qiyofasini aks ettiradi, voqelikni inson sezgi a‘zolarining ta’siri orqali belgilovchilik va boshqaruvchilik imkoniyatlarini namoyon qiladi.

Moddiy buyumlarni idrok etishdan farqli o‘laroq, *badiiy idrok jarayonlari* o‘ta talabchanligi bilan ajralib turadi. Negaki, yuqorida ta’kidlanganidek, badiiy idrok ijodiy jarayon bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘lib boradi. Mabodo ijod jarayoni to‘xtasa, badiiy idrok ham shu onda yakun topadi. Yohud sodda qilib aytganda, kitobxon badiiy asarni o‘qib tugallagandan so‘ng uning ushbu mavzuni idrok etishga bo‘lgan keyingi xolati ham tugallanadi.

Badiiy ijodni idrok etish moddiy narsalarni idrok etishdan farqlanadi. Holbuki, moddiy predmet aksariyat xollarda o‘zgarmas va ayni paytda kishida doimo bir xil taassurot qoldiradi. Badiiy asarni idrok etish natijasida inson voqelikka teran ko‘z bilan nazar tashlashga, mavjud muammolarni nozik tuyg‘ular yordamida hal etishga harakat qiladi. Shuningdek, badiiy idrok favqulodda o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, u hech qachon bir joyda to‘xtab qolmaydi. Bunday xolatni badiiy asarni qayta o‘qish jarayonida kuzatish mumkin.

Estetik idrok ham badiiy idrok singari nazariy va amaliy ahamiyatga molik tushunchadir. Negaki, estetik idrokni tadqiq etmay turib, badiiy ijod nazariyasini to‘laqonli tarzda anglab yetish hamda san‘atning ijtimoiy tabiatini ochib berish mumkin emas. Estetik idrok masalasi to‘g‘ridan–to‘g‘ri inson estetik tarbiyasiga dahldorligi bois inson va jamiyat, inson va davlat, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar rivojida sezilarli ta’sirga ega. Chunki, *estetik idrokning o‘ziga xos xususiyati* avvalo, badiiy ijodning tabiatiga hamda san‘atning ijtimoiylik mohiyatiga ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, estetik idrok qonuniyatlarini tadqiq qilish san‘at va badiiy ijod mazmuni va mohiyatini

to'laqonli tarzda namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, estetik idrok mohiyatan insonning voqelikni badiiy obrazlar orqali o'zlashtirishi bilan namoyon bo'la boradi.

Estetik idrok jarayonlarida *estetik masofa* va shu singari boshqa omillarning ham sezilarli o'rni mavjud. Ma'lumki, san'at turlarining barchasi ijodkor va tomoshabin nigohidan o'tgandagina qadriyatga aylanadi.

San'at asarlarida *rangni idrok etish* murakkab jarayon hisoblanadi. Bu esa insondan san'at asariga nisbatan ongli munosabatda bo'lishni, hattoki, rangning milliylik xususiyatlariga ham e'tibor berishni talab etadi. Zotan, rangni idrok qila bilish tomoshabin tasavvurining asosi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida san'at asarini to'laligicha idrok etishning muhim tarkibi sanaladi. Bu boradagi fikrlarimizni bir oz kengroq tarzda bayon qilish maqsadida haykaltaroshlik san'atiga murojaat etishni lozim deb topdik.

Xulosa qilib aytganda, mazkur bob mobaynida san'at xillari, turlari va janrlarini tasniflashtirishdek murakkab masalalarni baholi qudrat ko'rib o'tdik. Bizning ba'zi mulohazalarimiz, ilmiy xulosalarimiz umumjahoniy ildizga ega bo'lgan milliy estetikamizda bu boradagi dastlabki nazariy yondashuvlardir. Biroq ularni mutlaqlashtirishdan yiroqmiz, asosiy maqsad talabalar va domlalarda mustaqil fikrlash malakasini yuksaltirishdan iborat.

4.4. San'atning global muammolarining shaxs axloqiy madaniyati va estetik didiga ta'siri.

San'at - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini

go‘zallashtirish estetikaning tadqiqot obekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma‘naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi.

Ma‘lumki, fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san‘at, adabiyot va ma‘rifat ko‘tarishiga shubha yo‘q.

Demak, ko‘rinib turibdiki, san‘at voqelikka estetik munosabatning kengqamrovli sohasi bo‘lib, u insonni nafosatli hamda badiiy didini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. San‘atning tarbiyaviy-g‘oyaviy funksiyasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo‘ladi. Estetik haqiqatning o‘zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi.

Informatsion texnologiyalar - estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalari talabalariga “Sizning ideallaringiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?”, degan savolga ularning ko‘pchiligi san‘at, adabiyot va ma‘rifat sohasida ko‘proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televidenie 13 yilda, internet esa bor-yo‘g‘i 4 yilda egallab olar ekan. Shunisi hayratlanarliki, 1998 yilda internetdan 143 million kishi foydalangan bo‘lsa, 2001 yilda ularning soni 700 millionga yetgan. Bugungi kunga kelib esa internetdan foydalanayotganlar 1,5 mlrddan oshib ketdi. Bu borada uyali telefon xizmatini aytmasa ham bo‘ladi...

Biroq, elektron axborot vositalari qanday xususiyatga egaki, uning ta‘sir doirasi bunchalik tez yoyilmoqda? Bu borada mutaxassislarning fikriga ko‘ra, avvalo:

- *narxining arzonligi;*
- *asosiy mahsulot – bilim, axborot, moda va imidj;*
- *yangi iqtisodiyot - u axborotga ega bo‘lishni xoxlaydigan odamlarga imtiyoz bag‘ishlaydi;*

- *chinakam global xarakterga ega ekanligi.*

Ahamiyat berilsa, yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarning barchasi yoshlarning manfaatiga, tuyg'ulariga va dunyoqarishiga mos keladi. Bu xususiyatning barchasi birgina internetda jamlaganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, yoshlarning estetik tarbiyasidagi o'zgarishga bo'ladigan ta'sir san'at va adabiyotdanda ko'lamliroq ekanligiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Tabiat - estetik tarbiyaning zaruriy vositasidir. Shuni maxsus ta'kidlash kerakki, zamonaviy inson tarbiyasini estetik jihatdan kamol toptirishda *oila* qanchalik ustuvor omil bo'lib hisoblansa, bu jarayonda tabiat ham undan kam ahamiyat kasb etmaydi. Chunki tabiat bilan ongli tarzda murosa qilmaslik shaxsni nafosatli jihatdan mukammal bo'lib yetishishiga monelik ko'rsatadi. Shuning uchun inson va tabiat o'rtasidagi munosabat inqiroz va halokat yoqasiga kelib qolgan hozirgi vaqtda bu muammoni chetlab o'tish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Texnogen sivilizatsiya - estetik faoliyat va estetik didni shakllantirishning muhim omilidir. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go'zallashtirish estetik muammolardan hisoblanadi. Voqelikka estetik munosabatlar, milliy va umumbashariy ahamiyatga egadir. Estetik qadriyatlar esa – barqarorlikni ta'minlovchi omil hisoblanar ekan, "dunyoni go'zallik qutqaradi" shiori global ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. "Go'zal muhitda yashash oliy ne'mat" – estetikaning bosh tamoyilidir. Olamni estetik anglashda axborot va jamiyat axborotlashuvining roli ortib bormoqda. Axborot estetikasining o'ziga xos xususiyatlari va uning siyosiy, badiiy, ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy jarayonlar bilan bog'liqligidadir. Reklama estetik ma'lumot olish vositasi bo'lib bormoqda. Ularning turlari va shakllari hilma-xildir. Reklama estetikasida milliylik va umumbashariylik namoyon bo'lib boradi.

Shu o'rinda estetik tarbiyaga tahdidning uchinchi jihati haqida fikr bildirish va bu borada alohida ta'kidlash shart bo'lgan bir necha mulohazalar bor. Ular orasida insonning estetik tarbiyasiga ta'sir etishning psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Buni ong osti hodisasi orqali izoxlash mumkin.

1. Sezgilar. Aytish mumkin, mana shu 5 ta sezgi ilg'amagan narsani ong

osti ilg'ash qobiliyatiga ega. Uzluksiz jarayonni tuyg'ular hotiraga uzluksiz yozadi. Ammo biz ularning hammasini ajrata olmaymiz. Zero kamalakda millionlab, balki cheksiz miqdordagi rang bo'lishiga qaramay bizlar ulardan faqatgina 7 tasinigina ajrata olamiz xolos.

2. *Kuzatish*. Bu borada reklama va uning estetik tabiatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuning uchun ham mahsulot reklamalari odamlar gavjum bo'ladigan joylar (bozorlar, ko'chalar va hokazo)ga o'rnatiladiki, bunda bevosita kuzatish muhim omilga aylanishi bejiz emas. Ayni paytda mahsulotga bo'lgan qiziqish reklamada ko'rsatilgan shaxsga ixlos tufayli ortadi.

3. *Tashviqot*. Ongosti tashviqotga tabiiy xolda eshitilmaydigan ovozlari orqali ta'sir qilishni kiritish mumkin. Supermarket, kafe-bar, bozor hamda ko'ngilochar maskanlarda qo'yiladigan musiqalarda ham haridorlarni chorlash maqsadi ko'zlanadi.

4. *Yashirin kadr orqali ta'sir qilish*. Insonning ong osti xislariga yashirin ta'sir qilish xususan 25-kadr ko'pchilik davlatlar tomonidan ta'qib ostiga olingan. Mutaxassislarning fikricha bu turdagi tashviqot har doim ham yaxshi yo'lda ishlatilavermasdan, aksar shum niyatli insonlarga qo'l kelishi mumkin. Misol uchun kino yoki seriallarda, "Agar bir insonga davomli ravishda "Qo'shningni o'ldir!" shaklidagi yashirin kadr bilan ta'sir qilinsa, u hech ikkilanmasdan qotillikka qo'l urishi mumkin ekanligini tibbiyot psixologiyasi isbotlab berdi.

Endi ikki og'iz so'z "ommaviy madaniyat" haqida. Uning kelib chiqishi, ta'siri, tahdidi borasida mazkur anjuman ishtirokchilarining barchasi habardor, desam yanglishmagan bo'laman. Lekin, bir narsaga g'oyatda tahdidli, u ham bo'lsa, ommaviy madaniyat insonni "qiyofasiz" oqimning bir qismiga aylantirib qo'yishidadir.

Bu illat aksariyat xollarda haqiqat, go'zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumiste'molchilik ehtiyoji bilan bog'lab, iste'mol va tovar sifatida haridorgir bo'lishiga qaratilgan maqsadni targ'ib qiladi. Bu esa pirovardida "bozor adabiyoti", "bozor san'ati" degan ma'naviyatga tahdid soluvchi hodisalarning "gullab-yashnashi" uchun imkon yaratadi. Bugun turli arzonbaho

ishqiy yoki detektiv sarguzashtlarning bozori chaqqon. Didsiz, saviyasiz, “millati”ning tayini yo‘q “badiiy” filmlar ham ko‘payib ketgan. “Bozor san’ati” deganda, birinchi navbatda, anashunaqa filmlar va bayram sahnalarida qarsillatib aytiladigan yangroq ashulalar esga tushadi.

Xo‘sh “ommaviy madaniyat”ning illat sifatida qanday namoyon bo‘lishi mumkin?

1. “Ommaviy madaniyat” namoyondalarining amallari o‘zlari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan: ular “noyob san’at” namunalari-g‘oyalarini nafaqat targ‘ib qiladi, balki pullaydi ham.
2. Faqat bugunni, yana ham aniqrog‘i hozirni ko‘radi va tan oladi.
3. Umuminsoniy madaniyatni bo‘ysindirish va o‘z ta’sir doirasiga tortish kabi tuban maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi.
4. U odamzodning fikrlashiga tish-tirnog‘i bilan qarshi. Andozalashgan axborot-u mahsulotlar qurshovida qolgan odamlarning o‘zi ham bora-bora bir o‘lchamga tushadi: hammaning yurish-turishi, o‘y-kechinmasi, fikrlash tarzi, bari bir xil.
5. Shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermaydi. U voqea jarayonlarga loqayd, befarq avlodni shakllantiradi.
6. “Ommaviy madaniyat” o‘z navbatida mafkuraviy, informatsion, iqtisodiy qadriyatlardan foydalangan xolda “ma’rifatparast”lik g‘oyalari asosida o‘ziga xos muomala va muloqot madaniyatini ham targ‘ib qiladi. Buni biz bugungi kunda yoshlar orasida ko‘rishishdagi “boshni boshqa suqishtirish”, imo-ishora, o‘zaro muloqotning “kurakda turmaydigan so‘zlar”ga tayanilishi orqali ko‘rib guvohi bo‘lmoqdamiz.

“Ommaviy madaniyat”ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo‘lgan olomonni shakllantirish bo‘lgani bois, u ma’naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o‘quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamini kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo‘latmaydi. Shuning uchun “ommaviy madaniyat” namunalari badiiy-estetik qimmatga ega emas.

Nazorat savollari:

1. “Ommaviy madaniyat”ning ta’lim, tarbiya, turmush tarzi va kundalik faoliyatga ta’siri.

2. Axloqiy muhit va ekologik axloq deganda nimalarni tushunasiz?
3. Biologik axloq haqidagi fikringiz.
4. Bioetika masalari xususida nimalarni ayta olasiz?
5. Abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo‘qmi?

IV. AMALIY MASHG‘ULOTLARINING MAZMUNI

1–Mavzu: “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

Reja:

1. Falsafiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Soxaga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg‘or tajribalar.
3. “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning usullari va uslublari.
4. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va

yo‘llari.

Ishdan maqsad: Etika va estetika fanlarini o‘rganishda xorijiy usullardan foydalanish

Masalaning qo‘yilishi: Etika va estetika fanlarini sifat ko‘rsatkichlarini yuqori darajaga ko‘tarish.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlarning axloqiy va estetik mohiyati.
2. Ta’lim tizimida “Etika” va “Estetika” fanlarini o‘qitishning zolzarbligi (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimi misolida).
3. Etika va estetika fani mashg‘ulotlarining didaktik tamoyillari.
4. Etika va estetika fani mavzulariga qo‘llaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Etika va estetika fanini o‘qitishning interfaol usullari.
5. Zamonaviy darsning an’anaviy darsdan farqli jihatlari.
6. Etika va estetikaning nazariy mavzularni o‘qitish samaradorligini oshirish omillari.
7. Etika va estetika kategoriyalarining dialektik bog‘liqligi.

2–Mavzu: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari.

Reja:

1. XXI asrning global muammolari: falsafiy tahlil.
 2. Hozirgi davr axloqiy muammolari: ekologik axloq va etosfera.
 3. Estetikaning zamonaviy muammolari: nafosat, did va san’at.
 4. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo‘lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta’siri.
- vositalari va yo‘llari o‘rganish.

Masalaning qo‘yilishi: Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari o‘rganish va usullarini tavsiya qilish.

Nazorat savollari:

1. Ziyoli kishining axloqiy-estetik madaniyati, etiketi, imidji.
2. Zamonaviy axloqiy qoidalar va me'yorlar.
3. Amaliy etika masalalari.
4. Pedagog faoliyatida nutq madaniyati va notiqlik san'atining zaruriyati.
5. Kasb etikasi.
6. Axloqiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
7. Estetik munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

3-Mavzu: Axloq psixologiyasi.

Reja:

1. Ruhiy tahlil yo'nalishi va g'ayrizo'ravonlik.
2. Gender muammolari.
3. Ayol va erkaklarning xulq-atvori va motivatsiyasi.
4. Axloq psixologiyasining barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o'rni.

Ishdan maqsad: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolarini o'rganish.

Masalaning qo'yilishi: axloqiy va estetik muammolarini bugungi kundagi ahamiyatini xis qilgan xolda etosferani yaxshilash yo'llarini va usullarini tavsiya qilish.

Nazorat savollari:

1. Ilmiy texnik taraqqiyot va estetik bilimlar integratsiyasi.
2. Axborotlashgan jamiyatda axloqiy muammolarning yuzaga kelishi.
3. Ijtimoiy tarmoqlarning axloqiy tafakkurga ta'siri.
4. Tibbiyot estetikasining turmush tarziga ta'siri.
5. Bioetika: ijobiy va salbiy jihatlar.
6. "Ommaviy madaniyat"ning shaxs kamolotiga salbiy ta'siri.
7. Etosfera va ekologik axloq.

4-Mavzu: Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.

Reja:

1. Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.
2. Kasbiy odob va uning tamoyillari.
3. Axloqiy madaniyat.
4. Kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati.

Ishdan maqsad: Davlat xizmatchilarining axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishda etikaning asosiy tushunchalari va me'yorlari orqali shakllantirishga o'rgatish.

Masalaning qo'yilishi: Davlat xizmatchilarining etikasi va imijini shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo'llari o'rganish va usullarini tavsiya qilish.

Nazorat savollari:

1. Davlat xizmatchilari qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim?
2. Davlat xizmatchilarining madaniyati haqidagi fikringiz.
3. Muloqotda nutqiy muomala qanday ahamiyatga ega?
4. Muloqot jarayonida chiroyli muomalaning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
5. So'z va ish birligini davlat xizmatchisi etikasidagi asosiy mezon sifatida baholab bering.
6. Xodimlarning ruhiyati va xulq-atvorini tushunish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
7. O'ziga ishonch boshqaruvchi fazilatining muhim mezoni sifatida baholab bering.
8. "Imij" tushunchasi va uning vizual tavsiflari haqidagi fikringiz.
9. Imijni shakllantirishda jamoatchilik fikrini o'rganish haqida nimalarni bilasiz?
10. Imij turlari va uni shakllantirish omillari haqidagi fikringiz.
11. Imij va uning o'zgarib borishi haqida nimalarni bilasiz?
12. Imijni yaratish vositalari va usullari haqida nimalarni bilasiz?

5–Mavzu: Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.

Reja:

1. Etiket tushunchasi, mazmuni va mohiyati.
2. Etiket – amaliy axloq sifatida.
3. Etiketni shakllantirishning usul va vositalari.
4. Kasbiy etiketni shakllantirish – taraqqiyotni ta'minlash omili sifatida.

Ishdan maqsad: San'atning axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida foydalanish.

Masalaning qo'yilishi: San'atning axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qo'llay bilish.

Nazorat savollari:

1. San'atning turlari.
2. San'atning global muammolarining shaxs axloqiy madaniyati va estetik didiga ta'siri
3. San'atning axloqiy va estetik mazmuni.
4. Nosan'at obektlari.
5. Estetikaning asosiy qonuniyatlari.

6-Mavzu: Estetik anglash.

Reja:

1. Estetik bilish, anglash va ishlab chiqarish jarayoni
2. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.
3. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko'rinishlari.
4. Yosh avlodni estetik tafakkurini shakllantirishning dolzarb muammolari.

Etika va estetika faniga doir didaktik manbalari haqida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq:

Musulmon sharqida etika va estetika faniga oid didaktik manbalar

- Abu Nasr al Forobiy Fozil odamlar shahri
- Abu Ali Ibn Sino Donishnoma
- Kaykovus Qobusnoma
- Sa'diy Sheroziy Guliston, Bo'ston
- Yusuf Xos Xojib Qutadg'u bilig
- Ahmad Yugnakiy Hibat ul-haqoyiq
- Imom al-Buxoriy Al adab al-mufrad
- Abdurahmon Jomiy Bahoriston, Guliston
- Alisher Navoiy Mahbub ul qulub
- Husayn Voiz Koshifiy Axloqi muxsiniy;

Didaktikaning G'arb tafakkuridagi rivoji

- Komenskiy Ya. - «Buyuk didaktika».
- Pestalossi va Disterverg - doimo predmet yoki fanning inson ongida anglanishi jarayoniga, predmetning mohiyati va mazmunini tushunish qanday sodir bo'lishiga va qanday o'zlashtirilishiga, shakllanishiga katta e'tibor berdi.
- Gerbart - bilish jarayonining mohiyati va manbalariga, bosqichlariga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlar masalasini o'rgandi.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'limda etika va estetika fanlarining o'qitilish holati haqidagi fikringiz.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonun haqidagi fikringiz
3. Bugungi kunda estetika fanini o'qitilish holati haqidagi fikringiz.
4. Axloqiy-estetik muhit deganda nimalarni tushunasiz? Uning shaxsga qanday aloqadorligi bor ?
5. Ta'lim tizimining axloqiy-estetik muhitga ta'siri deganda nimalarni tushunasiz?.
6. Yoshlar tarbiyasida milliy ma'naviy kamolotning tadrijiy rivoji haqidagi fikringiz.
7. Ta'lim tizimidagi axloqiy-estetik fanlar muhim asos sifatida nimalarni aytib bera olasiz?

8. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil qilish tartiblarini izohlab bering.

V. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
AXLOQ	(arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviy hayot hodisasi, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. A. normalari kishilarning xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bunda ba'zi xatti-harakatlar, xulq-atvorlar A.iy, ba'zilar A.sizlik deb baholanadi. A. ijtimoiy ongning eng qad. shakllaridan biridir. Davr o'zgara borgan sari har qanday	MORALITY (Arabic: plural of behavior; Latin: moralis - behavior) - one of the forms of social consciousness, a phenomenon of spiritual life, a concept in the field of spirituality. It is a set of stable, specific norms and rules that regulate people's historically structured behavior, attitudes, interactions in social and personal life, as well as their relationships with society. A. norms are reflected in people's behavior. In this case, some actions, behaviors are assessed as A.iy, some as

	<p>hodisa kabi A. ham o'zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma'naviy madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. A.ni alohida fal-iy fan – "Etika" yoki "Axloqshunoslik" o'rganadi.</p>	<p>A.sizlik. A. the highest point of social consciousness. is one of the forms. As time goes on, like any event, A.D. also changes, develops, improves, and becomes one of the manifestations of spiritual culture. A. is studied by a separate science - "Ethics" or "Ethics".</p>
AXLOQIY FAZILATLAR	<p>-inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng yuksak, ijobiy hatti-harakatlar, o'y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo'lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo'lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo'lishi</p>	<p>MORAL VIRTUES - the highest set of positive, positive actions, thoughts and good deeds in human behavior: striving for goodness, doing good, being honorable, diligence, honesty, patriotism, humanity, generosity , the manifestation of qualities such as honesty, purity</p>
AXLOQSIZLIK	<p>-jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlardan chetga chiqish: boqimandalik, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o'g'rilik, hasad, g'iybat, tuhmat, vatanfurushlik, e'tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo'lishi.</p>	<p>IMMORALITY is a deviation from the accepted moral norms in society: dependence, lying, alcoholism, prostitution, theft, jealousy, gossip, slander, patriotism, infidelity and all other negative traits.</p>
ADOLAT	<p>— yuksak ma'naviy tushuncha bo'lib, uning E. va Yo. hamda Ya. va Yo. dan asosiy asosiy farqi shundaki, A. ning o'zi biror bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; A. da ikki ma'naviy</p>	<p>JUSTICE is a high spiritual concept, its E. and Yo. and Ya. and Yo. The main difference from A. does not mean any value in itself, but determines the ratio between the values, has the status of evaluating them. It therefore has the property of regulating society; A. It</p>

	<p>jihad – ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma’lum ma’noda axloq sohasidagi miqdor o‘lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o‘lchab turadigan tarozidir. A. bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo‘l yo‘q. Eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, m., mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud, lekin hayvonlarda ular o‘z guruhiga, eng avvalo, o‘z zurriyotiga qaratilgan bo‘ladi.</p>	<p>combines two spiritual aspects - both moral and legal. In a sense, it can also be called a measure of quantity in the realm of ethics: it is a scale that measures reward by demand. A. where there is no social oppression, no tyranny. The simplest, most primitive qualities, m., Kindness, compassion, kindness are also present in animals, but in animals they are directed to their group, first and foremost to their offspring.</p>
TARBIYA	<p>– insonning shaxs bo‘lib yetishuvini ta’minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Go‘zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma’noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo‘lgan kishilar jamiyatga ta’sir qiladi, uning rivojlanishini tezlashtiradi.</p>	<p>EDUCATION is one of the continuous processes that ensure the development of a person as a person. Beautiful qualities are human, not just his property. A good quality is the wealth of a society, it has a universal meaning. People with positive qualities influence society, accelerate its development.</p>
ESTETIKA	<p>(yun.aistethikos - hissiy idrok, sezgi) 1)voqelikni hissiy ta’sirchan,emotsional o‘zlashtirish; 2) estetik faoliyat qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan. Estetika fan sifatida estetik tafakkur tarixi, estetikaning metodologik muammolari va estetik tarbiya masalalarini o‘z ichiga oladi.</p>	<p>AESTHETICS - (Greek aistethikos - emotional perception, intuition) 1) emotionally affective, emotional assimilation of reality; 2) the science of the laws of aesthetic activity. Aesthetics as a science includes the history of aesthetic thinking, methodological problems of aesthetics and issues of</p>

		aesthetic education.
ESTETIK DID	<p>- voqea hodisalarning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg‘usi, estetik mezon.</p> <p>Estetik did insonning fikr mulohazalari, xulq atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma’naviy ijod mahsulotlarida o‘z ifodasini topadi</p>	<p>AESTHETIC DID is a sense of satisfaction or dissatisfaction obtained in the process of perceiving and evaluating the aesthetic qualities of events, an aesthetic criterion. Aesthetic taste is reflected in the thoughts, behavior, actions, material and spiritual creations of man.</p>
ESTETIK ANGLASH	<p>- olamni estetik anglash, dunyoga inson munosabatining sub’ektiv tomoni. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy anglash kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi. Estetik anglash ma’naviy ruhiy voqea-hodisalar majmui bo‘lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, estetik did, fikr, orzu qilish nazariy qismini anglatadi.</p>	<p>AESTHETIC UNDERSTANDING - aesthetic perception of the world, the subjective side of human attitude to the world. It is one of the social forms, along with social phenomena such as moral, political, legal, religious, philosophical. Aesthetic understanding is a set of spiritual and spiritual events, which represent the theoretical part of the aesthetic feeling, aesthetic taste, thought, dream, which arises in the social life.</p>
AXLOQIY FAZILATLAR	<p>-inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng yuksak, ijobiy hatti-harakatlar, o‘y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo‘lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo‘lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo‘lishi</p>	<p>MORAL VIRTUES - the highest set of positive, positive actions, thoughts and good deeds in human behavior: striving for goodness, doing good, being honorable, diligence, honesty, patriotism, humanity, generosity , the manifestation of qualities</p>

		such as honesty, purity
AXLOQSIZ-LIK	-jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlardan chetga chiqish: boqimandalik, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o'g'rilik, hasad, g'iybat, tuhmat, vatanfurushlik, e'tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo'lishi.	IMMORALITY is a deviation from the accepted moral norms in society: dependence, lying, alcoholism, prostitution, theft, jealousy, gossip, slander, patriotism, infidelity and all other negative traits.
BAXT	- ma'naviy axloqiy tushuncha. Kishi o'z faoliyati natijalaridan hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlaridan to'la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga yetganlik, orzu-umidning ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi. Baxt nisbiy tushuncha, mutloq baxt yo'q. Baxtni qanday ma'noda tushunishning shaxsning ijtimoiy o'rniga, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog'liq. Baxt haqidagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzim va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi b-n uzviy bog'liq.	HAPPINESS is a spiritual moral concept. Man is manifested in the results of his activity as a state of complete satisfaction with the achievements of life, satisfaction with the way of life, achievement of a certain goal, fulfillment of dreams and hopes, a state of inertia. Happiness is a relative concept, there is no absolute happiness. How to understand happiness depends on a person's social status, education, age, worldview. People's perceptions of happiness are inextricably linked to the social system and the complex of social relations within it.
VIJDON	— ma'naviyatdagi ta'sir doirasi nihoyatda keng tushunchalardan biri. V. – Z. Froyd ta'biri b-n aytganda, alo men , men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men . Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib	CONSCIENCE is one of the most broad concepts in the sphere of influence in spirituality. V. - Z. In Freud's interpretation, alo, I am the second one, the higher I, who controls it and directs it. If the feeling of shame stems

	<p>chiqsa, V. uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, V. azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi.</p>	<p>from a person's external, social dependence, V. demonstrates its internal self-dependence. This internal connection is deeper and more permanent than the external connection: if shame is an inconvenience caused by a person's own inappropriate behavior over a period of time, V. suffering is not a mere inconvenience, but a cry, a demand of faith in humanity in the heart, in man; unless you satisfy it, the suffering will never stop.</p>
<p>KASBIY ODOB</p>	<p>- jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir. Odob (arab. adab so'zining ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar b-n munosabat (oilal, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi. Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va me'yorlari, shuningdek, maqsadga muvofiqlik va go'zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar b-n qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi</p>	<p>PROFESSIONAL ETHICS is a set of actions, such as a clear professional duty, honor, dignity, dignity, which implements the rules of ethics accepted by society in relation to people's specialties, a specific manifestation of general morality in people's professions. Etiquette (Arabic plural of adab) is a socially accepted norm of behavior. The person represents the external aspect of the spiritual life and is manifested in the b-n relationship of others (family, work community, various rituals). At the heart of etiquette are some principles and norms of morality, as well as the</p>

	<p>qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharmhayo, kamtarlik, xushmuomalalik kabilar)ni o‘z ichiga oladi</p>	<p>requirements of purposefulness and beauty (aesthetics). Etiquette includes rules about how a person should behave in public, how he or she should behave in public, how he or she should organize his or her life and leisure, and how a person should look (for example, modesty, humility, politeness, etc.).</p>
<p>MUOMALA MADANIYATI</p>	<p>-insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o‘zaro ma’naviy aloqa, salomlashuv, so‘zlashuv, kelishuv va boshqa insoniy munosabatlardir. Muxim aloqa vositasi-M.m. ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro suhbatini, munosabatini ko‘rsatuvchi omil. M.m. nafaqat kishilar orasidagi aloqa vositasi, balki shu b-n birga dunyoning, olamning ma’naviy instrumenti hamdir. Sizning qanday shaxs ekaningizni, o‘zaro muloqotda o‘z ifodasini topadi.</p>	<p>CULTURE OF COMMUNICATION - spiritual interaction between people, peoples, nations and peoples, peoples, greetings, speech, agreement and other human relations. An important means of communication — M.m. a factor that indicates the interaction of two or more people. M.m. it is not only a means of communication between people, but also a spiritual instrument of the world, the universe. What kind of person you are is reflected in the interaction.</p>
<p>TARBIYA</p>	<p>– insonning shaxs bo‘lib yetishuvini ta’minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Go‘zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma’noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo‘lgan kishilar jamiyatga ta’sir qiladi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson</p>	<p>EDUCATION is one of the continuous processes that ensure the development of a person as a person. Beautiful qualities are human, not just his property. A good quality is the wealth of a society, it has a universal meaning. People with positive qualities</p>

	<p>bolasi ham bu yorug' olamga shunchaki kelmaydi. Hazrat Navoiy ta'biricha, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi. Inson to'g'ri tarbiya topmasa, uning xatti-harakatlari jamiyatga zarar keltiradi.</p>	<p>influence society, accelerate its development. According to Hazrat Navoi, man does not come to this world of light just to reach perfection. When left unmanaged, they can be left astray and lose the right path.</p>
HASAD	<p>- o'zida yo'q bo'lgan narsaning boshqalarda bo'lishini istamaslik, o'zgalarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslik.</p> <p>Hasad tuyg'usi mavjud bo'lgan odam boshqalarning yaxshi turmush kechirishidan, o'qishda, mehnat faoliyatida erishgan yutuqlaridan qiyin ahvolga tushadi. Hasad turli olamshumul dinlarda qoralanadi. Masalan xristian dinida hasad yettita gunohi kabiralardan biri hisoblanadi. Chunki bu dinda aytilishicha, hasad qilish xudo tomonidan o'rnatilgan tartibdan norozilikni bildiradi.</p>	<p>JEALOUSY is not wanting what is not in oneself to be in others, not being able to see the achievements and successes of others. A person with a sense of envy is in a difficult position because of the good lives of others, their achievements in education and work. Envy is condemned in various world religions. In Christianity, for example, jealousy is one of the seven great sins. Because it is said in this religion that jealousy is dissatisfaction with the order established by God.</p>
ETIKET	<p>- takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan munosabat hodisasidir. Etiketning qamrovi keng, u ma'lum ma'noda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Muomala odobida inson</p>	<p>ETHICS is a phenomenon of positive, pleasing to the eye as a rule of etiquette developed down to the smallest detail. The scope of etiquette is wide, it includes, in a sense, internationally accepted rules of conduct. It more manages the external culture of man, the fulfillment of the rules of behavior in relationships. In etiquette, if a person takes a</p>

	o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqazo etadi.	creative approach to their relationship, that is, is able to do more than one treatment in a situation, etiquette requires only the same regulated behavior for a particular situation.
